

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK FAKULTETI

5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

UZOQOV ULUG'BEKNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: "GOLSHTINLASHTIRILGAN HAR XIL GENOTIPLI
QORA-OLA ZOTLI YOSH MOLLARNI O'SISH VA RIVOJLANISHI"**

Ilmiy rahbar: q.x.f.n.

Xushvaqtov A.A.

"Zootexniya, hayvonlar genetikasi va
urchitish" kafedrası mudiri, dotsent
_____E.S.Shaptakov
"_____" _____2014 yil
№_____ -sonli yig'ilish bayoni

Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti dekani,
dotsent _____
N.O.Farmonov
«____» _____2014 yil

Samarqand-2014

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ
Факультет Ветеринария, зоотехния ва қорақўлчилик

Йўналиш 5620600-Зоотехния (тармоқлар бўйича)
(Коди, тўлиқ номи)

Кафедра “Зоотехния, хайвонлар генетикаси ва ўрчитиш”

«ТАСДИКЛАЙМАН»
Ўқув ишлари бўйича биринчи
проректор, доцент
Элмуродов А.А. 
«30» 08 2013 йил 

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ БЎЙИЧА ТОПШИРИҚ ВАРАҚАСИ

1. Ижрочи Узоков Улуғбек Гопурович
(ф.и.ш.)

2. Мавзу “Голштинлаштирилган хар хил генотипли кора-ола ёш молларни ўсиш ва ривожланиши”

Мавзу институт илмий кенгашининг «30» 08 2013 йилдаги
№ 4 сонли қарори билан тасдиқланган.

3. Мавзунинг долзарблиги, назарий ва а малий (иқтисодий, ижтимоий, экологик, илмий - техник, меҳнат муҳофазаси, ҳаёт хавфсизлиги ва х.к.) аҳамияти.

Мамлакатимизнинг турли тоифаларида ўрчитилаётган режали кора-ола зотли молларни айрим хўжалик фойдали белгиларини яхшилаш мақсадида дунё генофондига ҳос голштин зотининг насли билан уруғлантириш натижасида кўп сонли хар хил генотипли авлодлар олинган. Аммо, уларнинг ўсиш ва ривожланиш хусусиятлари айрим даражада ўрганилмаган. Ушбу масалаларни ўрганиш мавзусини долзарблигини белгилайди.

Малакавий битирув ишини бажариш учун тавсия қилинадиган илмий, ўқув - услубий ва бошқа ахборот манбалари (дарслик, ўқув қўлланмалар, маъруза матинлари, монография, илмий мақолалар ва х.к.)


1. У.Н.Носиров “Қорамолчилик”. Тошкент 2001. 2. П.С.Собиров, А.К.Кахаров, С.Дустқулов “Қорва молларини ўрчитиш” Тошкент 2003. 3. Дунин И.М. Генеология голштинского скота черно пестроймясной. Москва 1999. 5. Хушвақтов А.А ном.диссертацияси автореферати. Тошкент 2007. 6. Тошпулатов П.Ж. ном.диссертацияси автореферати. Тошкент 2011. 7. Досмухаммедова М.Х. ном.диссертацияси автореферати. Тошкент. 2012. 8. Норбоева М.К. ном.диссертацияси автореферати. Тошкент. 2012. 9. “Зоотехния”, “Молочное и мясное скотоводство”, “Зооветеринария” журналларининг 2000-2013 йй сонлари.

Малакавий битирув иш бўйича маълумотлар тўплаш ҳамда тадқиқот ишлари олиб бориш манбалари ва жойлари (ўқув зали ва хоналари, илмий кутибхона, лаборатория, ташкилот, корхона, илмий ёки таълим муассасаси)

Зоотехния, хайвонлар генетикаси ва урчиши, Яйлов чорвачилиги ва қишлоқ хўжалик хайвонларини озиклантириш технологияси кафедралари ва институт ахборот ресурслар маркази.

6. Малакавий битирув ишини тайёрлаш бўйича амалга ошириладиган ишлар режаси

№	Ишнинг мазмуни	Тахминий хажми (бет)	Ижро муддати	Изох
1	Масаланинг қўйилиши. Мавзунинг долзарблиги, ечилиши ёки ўрганиш лозим бўлган масалани моҳияти ва мақсадини ёритиб бериш.	10	Феврал 2014	
2	Мавзу бўйича маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш (ёрдамчи мулоҳаза ва фактлар)	25	Феврал 2014	
3	Олиб борилган тажрибалар, тадқиқот ишлари натижаларини таҳлил қилиш ва тартибга солиш (параграф, боб, бўлим ёки қисмлар бўйича)	30	Март 2014	
4	Олинган натижаларнинг назарий ва амалий аҳамияти бўйича хулоса бериш ҳамда тадбиқ соҳалари ва уларга оид тақлифлар тайёрлаш.	10	Март 2014	
5	Битирув малакавий ишини расмийлаштириш ва унинг ҳимояси учун зарурий кўргазмали воситаларни (жадваллар, расмлар, графиклар, диаграмма макет, стенд ва ҳ.к.) тайёрлаш	10	Апрел 2014	
6	Дастлабки ҳимояга тайёргарлик кўриш ва ҳимояга чиқиш матнини тайёрлаш	10	Май 2014	
7	Битирув малакавий иши бўйича қўшимча маслаҳатчилар.			

Илмий раҳбар, к.х.ф. номзоди, ассистент  Хушвақтов А.А.

Кафедра мудири, доцент  Шаптаков Э.С.

MUNDARIJA

	bet
Kirish.....	5
I.Adabiyotlar sharhi.....	12
II. Mavzu bo'yicha muammolarning qo'yilishi va qo'llaniladigan uslubiyatlar.....	28
III. Asosiy qism.	32
3.1. Golshtin zotiga tavsif.....	32
3.2. Qora-ola zotiga tavsif.....	35
3.3.Golshtinlashtirilgan har xil genotipli qora-ola zotli yosh mollarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari.....	41
3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.....	55
III.5. Izlanishlarning iqtisodiy samaradorligi.....	60
IV.Hayot faoliyati xavfsiziligi va ekologik muammolar.....	64
Xulosalar.....	66
V. Ishlab chiqarishga beriladigan taklif va amaliy tavsiyalar.....	67
VI. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	68
Ilovalar	74

KIRISH

Chorvachilik – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, baliqchilik, asalarichilik, andatrachilik tarmoqlari rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalari uchun go'sht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi, chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi. Bundan tashqari chorvachilikda o'simlikchilik va chorvachilikning ayrim sohalari rivojlanishini ta'minlaydigan mahsulotlar ham yetishtirilmoqda. Masalan, chorva chiqindisi – go'ng tuproq unumdorligini oshiradi, o'simliklar uchun organik o'g'it hisoblanadi. Chorvachilik mahsuloti sut esa aholi tomonidan iste'mol qilinishidan tashqari yangi tug'ilgan yosh hayvonlarga ham beriladi.

Chorvachilik tarmoqlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 11 foizga yaqini yetishtirilmoqda. Uning 90 foizga yaqinini aholi xo'jaliklari yetkazib bermoqda. Demak, qolgan qismi jamoa mulkchiligiga asoslangan xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi Respublika aholisi talablarini qondirish maqsadida ichki bozorlarda, cheklangan miqdori esa tashqi bozorlarda sotilmoqda.

Kelajakda bu muammoni hal etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun obyektiv imkoniyatlar mavjud. Respublika chorvachiligida ekologik jihatdan barcha talablarga javob beradigan go'sht, sut mahsulotlarini, teri, ayniqsa, qorako'l terisini, jun yetishtirishni rivojlantirib, ularni tashqi bozorda sotish mumkin. Bunda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi ham yuksaltiriladi. Natijada tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, ahamiyati ortadi.

Hozirgi kunda chorvachilik tarmoqlarida nasldorlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, seleksiya-naslchilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va keng ko'lamli seleksiya ishlarini yuritish muhim vazifalardan sanaladi.

Chorvachilik tarmoqlarila seleksiya-naslchilik ishlarini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining "Naslchilik to'g'risida"gi qonuni bilan, shuningdek seleksiya jarayonlarida olib borilgan ijobiy ishlar natijasida erishilgan yutuqlarni rasmiy ravishda tasdiqlash va ularning mualliflariga mualliflik huquqini berish va seleksiya yutug'ini patent bilan himoyalash O'zbekiston Respublikasi "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi qonuni bilan belgilangan talablar asosida ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda respublikada 788 dan ziyod naslchilik subyektlari mavjud bo'lib, shundan 448 ta qoramolchilik, 41 ta qorako'lchilik, 30 ta dumbali qo'ychilik, 9 ta echkichilik, 13 ta ipak qurti, 22 ta yilqichilik, tuya va cho'chqa 2 tadan, 2 ta baliqchilik, 25 ta parrandachilik hamda 173 ta "nasl-xizmat" ko'rsatuvchi viloyat, shahar va tuman korxonalari mavjud.

Chorvachilikda naslchilik subyektlari tomonidan olib borilayotgan seleksiya-naslchilik ishlarini nazorat qilib borishni Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Chorvachilikda naslchilik ishlari bosh davlat inspeksiyasi amalga oshirib kelmoqda.

Chorvachilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining ildam rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 46,3 foizi uning ulushiga to'g'ri keladi. tarmoqning asosiy xususiyati shundaki, chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi unchalik katta bo'lmagan oilaviy (dehqon) xo'jaliklarida ishlab chiqarilmoqda. ushbu xo'jaliklar egallagan maydonning o'rtacha hajmi 0,15 gektarni tashkil etadi. Dehqon xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish katta ijtimoiy ahamiyatga ega, negaki, bu ko'plab oilalar uchun daromad olish va iste'molning muhim manbai hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga katta e'tibor

berilayotganligi, aholiga qo'shimcha yer maydonlari ajratilganligi, shuningdek davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilganligi tufayli aholida chorva bosh soni ko'payishiga, buning natijasida ichki iste'mol bozorini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishda, sezilarli natijalarga erishishga imkon yaratildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etishga doir chora-tadbirlar dasturining amalga oshirish natijasida chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etilmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida barcha toifa xo'jaliklarida qoramollar bosh soni 10607,0 ming boshga yetkazilib, 2012 yilga nisbatan o'sish darajasi 4,6 foizga, shundan sigirlar bosh soni 4020,5 ming bosh yoki 2,2 foizga, qo'y va echkilar bosh soni 17720,2 ming bosh yoki 3,5 foizga, otlar bosh soni 6583 ming bosh yoki 3,3 foizga, parrandalar bosh soni 52337,2 ming bosh yoki 10,2 foizga oshganligi kuzatilgan.

Yuqorida qayd etilgan raqamlar asosida shuni ta'kidlash lozimki, chorva mollari sonini xo'jaliklar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak o'tgan davr mobaynida qoramollar bosh soni barcha toifadagi xo'jaliklarda jami 10607,3 ming bosh (100%) ga yetgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichni, fermer xo'jaliklari 539,9 ming boshni yoki 5,1% ni, dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga) 9957,4 ming bosh yoki 93,8%ni, qishloq xo'jalik korxonalarida esa 109,8 ming bosh yoki 1,1 foizini tashkil Shu jumladan sigirlarni 4,6 foizi fermer xo'jaliklarida, 94,5 foizi dehqon xo'jaliklarida (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan), 0,9 foizi esa qishloq xo'jalik korxonalarida urchitilmoqda

Urchitilayotgan jami (100%) qo'y va echkilarning 83,3 foizi, otlarning 83,4 foizi, jami parrandalarning 63,4 foizi dehqon xo'jaliklarida (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga) hisobiga to'g'ri kelgan. Shuning uchun ham fermer xo'jaliklari faoliyatini dunyo tajribasiga asoslangan holda samarali faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115 ming tonna yoki 7,0 foiz ko'p tirik vaznda go'sht, 573,8 ming tonnaga yoki 7,8 foiz ko'p sut, tuxum

ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 506 mln. donaga yoki 113,1 foizga ko'payib, bir tovuqdan olingan tuxum 16 donaga yoki 110,6 foizga oshganligi kuzatilgan, faqatgina qorako'l teri ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 56,3 ming donaga yoki 5,0 foizga kamayganligi qayd etilgan. Jun ishlab chiqarish hajmi 1,4 ming tonnaga yoki 104,5 foizga oshgan. Asal ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 2155,5 tonnaga yoki 144,1 foizga, baliq yetishtirish esa 12270,9 tonnaga yoki 147,4 foizga oshgan.

Ishlab chiqarilayotgan chorvachilik mahsulotlarini xo'jaliklar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy mahsulot dehqon xo'jaliklariga to'g'ri kelgan. Barcha toifadagi xo'jaliklarda ishlab chiqariladigan 7884733 kg (100 foiz) sutning 285589 kilogrammi yoki 3,6 foizi fermer xo'jaliklarida, 7547203 kilogramm yoki 95,7 foizi dehqon xo'jaliklarida, 51941 kilogramm yoki 0,7 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga to'g'ri kelgan. Shunga mos ravishda jami ishlab chiqarilgan go'shtning 2,8 foizi fermer xo'jaliklari, 95 foizi dehqon xo'jaliklari, 2,7 foizi qishloq xo'jalik korxonlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, tuxumning 11,4 foizi fermer xo'jaliklari, 54,9 foizi dehqon xo'jaliklari, 33,7 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga to'g'ri kelgan. Shuningdek qirqib olingan junning 6,9 foizi fermer xo'jaliklari, 86,8 foizi dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga), 6,3 foizi qishloq xo'jalik korxonalari, qorako'l terining 4,8 fermer xo'jaliklari, 75,6 foizi dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga), 6,4 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga, asalning esa 16,8 foizi fermer xo'jaliklari, 76,8 foizi dehqon xo'jaliklari, 6,4 foizi qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Shuningdek ovlangan baliqning 29,8 foizi fermer xo'jaliklari, 11,1 foizi dehqon xo'jaliklari, 59,0 foizi esa qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan yetishtirib berilgan. Olingan tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqariladigan mahsulotning (60-90 %) asosiy qismi dehqon (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga) xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri kelgan.

Sut ishlab chiqarish bo'yicha ham viloyatlar kesimida xuddi shunday farq mavjud. Jami yetishtirilgan sutning asosiy qismi ya'ni: 12,7; 10,5; 9,7; 9,5 foizini

tegishlica Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm, Farg'ona, Toshkent viloyatlari bergan bo'lsa, bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinni, Andijon, Buxoro, Surxondaryo, Namangan va Jizzax viloyatlari (8,9; 8,5;8,5;6,3 va 5,4 %) hamda oxirgi o'rinni Navoiy, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi egallashgan (4,3; 3,2; va 3,0 foiz). 2013- ishlab chiqarish yili yakuni bo'yicha Mamlakatimizda jami 1,8 mln. tonnaga yaqin go'sht ishlab chiqarilgan, shudan 1,0 mln. tonnadan ziyodini qoramol go'shti tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham sezilarli darajada farq kuzatilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi iste'molidagi sut va go'sht mahsulotlarini deyarli barchasi, go'sht va go'sht mahsulotlarini esa 60 foizdan ortig'i chorvachilikning yetakchi sohasi qoramolchilikdan olinadi. Shuning uchun ham chorvachilikka oid qabul qilingan Davlat qonunlarida O'zbekiston (1,2) Respublika Prezidentining 308 (3) va 842 (4) sonli qarorlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida qoramolchilikni rivojlantirishning o'ziga xos tomonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ana shu muhim ahamiyatga ega bo'lgan xujjatlar sohani istiqboli uchun dasturi amal bo'lib kelmoqda va har yili chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni ekologik jihatdan sifatini yaxshilash borasida qabul qilinadigan hukumat dasturlarini mazmun va mohiyatini belgilamoqda.

Oxirgi yillarda qoramolchilikni fan yutuqlari va ilg'orlar tajribasi asosida rivojlantirish maqsadida naslchilik ishiga, oziqa bazasini mustahkamlashga va mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda qoramollar zotini yaxshilash, genofondini boyitish va saqlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham oxirgi yillarda dunyo genofondiga xos xo'jalik foydali belgilari bilan boshqa zotlardan keskin farq qiladigan qora-ola, qora-ola va qizil-ola tusli golshtin hamda qizil cho'l kabi zotlar mamlakatimizning turli xududlariga xorijdan keltirilmoqda. Bunday tadbirlarni o'tkazishdan maqsad hayvonlarning mahsuldorlik genetik potensialini to'liq yuzaga chiqarish va aholini sut va go'sht mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishdir. Aynan ana shu yo'nalishdagi maxsus tadqiqotlar o'tkazish uchun

asos qilib olingan mavzu bugungi kun chorvachiligini dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki respublikamiz chorvachiligida eng asosiy va yetakchi tarmoq hisoblangan qoramolchilikni rivojlantirish aholini ekologik toza sut va go'sht bilan ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda urchitish uchun rejalashtirilgan 10 ga yaqin qoramol zotlari orasida o'zining bosh soni va sigirlarining sut mahsuldorligi jihatidan qora-ola zoti birinchi o'rinda turadi. Ammo bu zot o'zining ayrim xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishga muhtoj. Bu zootexnikaviy tadbir sof zotli urchitish bilan barcha qora-ola zotli sigirlarni chatishtirishda jahon genofondiga xos qora-ola tusli golshtin zotli buqalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Bu muammoni yechimi boshqa omillar qatorida chatishtirishga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham butun dunyoda va bizning Respublikamiz sharoitida o'zining sut mahsuldorligi bilan mashhur bo'lgan golshtin zotini genofondidan foydalanish maqsadida, uning buqalari bilan boshqa zotga mansub qoramol zotining sigirlari kochirilmoqda.

Golshtin zoti qora-ola zoti uchun «yaxshilovchi» hisoblanadi. Chunki bu zot dunyoda genetik salohiyati eng yuqori zot bo'lib, chatishtirish jarayonida bu zotning buqalari avlodlariga yaxshi darajada o'z irsiy belgilarini o'tkazish qobiliyatiga ega. Bu fikrni sut mahsuldorligi bo'yicha qanchalik to'g'ri ekanligini A.V.Verobeyev va boshq. (1990), S.F.Pogodayev va boshqalar (1992), Sh.A.Akmalxonov (1993), M.E.Ashirov (1994), E.Yu.Karchevskiy (1995), U.A.Ballasov (1999), B.P.Zavertyayev va boshqalar (2000), P.N.Proxorenko va boshqalar (2004), U.M.Kuchchiyev (2006), A.A.Boltayev (2007) va boshqalar o'z ilmiy-tadqiqotlarida o'rganishgan. Ammo chatishtirish natijasida olingan ko'p sonli xar xil genotipga mansub chatishma hayvonlarni mahsuldorligi yetarlicha o'rganilmagan. Ko'pgina tadqiqotlarda golshtin zotining zotdorligi oshgan sari go'sht mahsuldorligi kamayadi degan xulosa qilingan bo'lsa, ko'pchiligida uning aksi huddi sut mahsuldorligi kabi golshtin qon ulushi ko'paygan sari go'sht mahsuldorligi yaxshilanadi degan fikrlar bildirilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, qora-ola zotli sigirlarni golshtin zotli buqalar bilan chatishtirish ishlarini fakat yuqori mahsuldorli podalarda va oziqlantirish me'yori yuqori bo'lgan xo'jaliklardagina samarali bo'ladi.

I.ADABIYOTLAR SHARHI

Qabul qilingan davlat dasturlariga binoan oxirgi yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida turli maqsadlarda chet davlatlardan import yo'li bilan ko'p sonli naslli qoramollar olib kelinmoqda. Bu esa chetdan keltirilgan hayvonlarni yangi iqlim va ekologik sharoitda moslashish xususiyatlarini o'rganishni va shu olingan natijalar asosida ularni urchitish istiqbol rejalarini tuzishni ta'qoza etadi. Ushbu masalalar uzoq yillardan e'tiboran har xil hudud va mintaqalarda ko'plab tadqiqotchilarni qiziqtirgan va ularni diqqatini jalb etgan.

Ye.V.Sheglovning (1987) fikricha, dunyo genofondining sermahsuldor qoramol zotlaridan biri bo'lmish golshtin zotidan qora-ola zotli hayvonlarning xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofik ekan. Chatishma hayvonlarda qora-oladan maxalliy sharoitda moslashish xususiyati irsiylangan bo'lib, Moskva viloyati sharoitida yangi sersut qoramol tipini yaratish imkonini bergan.

V.V.Milemyenkoo va boshqalar (1988) Stavropol o'lkasining «Donskoy» sovxosi sharoitida har xil genotipga mansub bo'lgan chatishma buqachalarning go'sht mahsuldorligini o'rgangan. Tajriba uchun: I guruh $1/2$ golshtin x $1/2$ qizil cho'l; II guruh – $1/2$ golshtin x $1/4$ angler x $1/4$ qizil cho'l; III guruh - $4/8$ golshtin x $3/8$ angler x $1/8$ qizil cho'l IV guruh – $1/2$ golshtin x $1/2$ angler va V guruh sof zotli qizil cho'l. 15 oylik tajriba davomida olingan qo'shimcha tirik vazn I guruhda 386,1; II guruxda 404,8; III guruhda 397,1; IV guruhda 392,6 va V guruhda 365,4 kg ni tashkil etgan.

Chatishma buqachalarni go'sht nimtalarining og'irligi sof zotliga nisbatan tegishlicha 8,5; 20,0; 19,2 va 10,3%ga ko'p bo'lgan. Laxm go'sht chiqimi guruhlarda shunga mos ravishda 81,2; 81,8; 81,0; 80,9 va 80,3 % bo'lgan bo'lsa, 1 kg suyakka to'g'ri kelgan go'sht tegishlicha 4,3; 4,5; 4,2; 4,0 va 3,9 kg ni tashkil qilgan. Bu ma'lumotlar V.M.Ivanov (1989, 2005) natijalariga mos keladi.

D.S.Adushinov va Ye.M.Ustimovlar (2002) Irkutsk viloyati Cheremexov tumani «Golumetskiy» davlat xo'jaligi sharoitida toza zotli qora-ola va uni

golshtin bilan chatishtirish natijasida olingan I va II bo'g'in duragaylarini go'sht mahsuldorligini o'rganish maqsadida tajriba o'tkazishgan. 18 oylik buqachalarning tirik vazni 450,3; 489,4; 478,6 kg bo'lgan bo'lsa, nimalanmagan go'shtning og'irligi shunga mos ravishda 245,6; 271,0; 265,9 kg ni tashkil etgan. So'yim chiqimi tegishli 59,7, 61,1 va 61,0% bo'lgan.

V.Kalashnikov, X.Amerxanov (2005) ma'lumotiga qaraganda Rossiya federasiyasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini umumiy ko'rsatkichini 44%ni chorvachilik mahsulotlari tashkil qiladi. 2004 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 7,7 mln. tonna go'sht ishlab chiqarilgan (tirik vaznda), bu esa 1999 yilga nisbatan 14% ko'p demakdir. Ishlab chikarilayotgan go'shtni asosiy kismi fermer va dehqon xo'jaliklariga to'g'ri kelgan.

Qoramol go'shti ishlab chiqish ancha yo'lga ko'yilgan. 2004 yilda qo'shimcha tirik vazn 4,4 ming tonnani tashkil qilgan, 1999 yilga nisbatan 4,4% ko'p. Ammo ishlab chiqarishni o'sishi qoramollar bosh sonini kamayishi evaziga sodir bo'lmoqda. 1999-2004 yillar davomida 4 mln. bosh qoramol kamaygan. Mualliflarning yozishicha sutbop va qo'sh mahsuldor qoramol zotlari 15-20 oyligida 400-600 kg tirik vaznga ega bo'lib, 210-330 kg sifatli go'sht beradi. Lekin go'sht mahsuldorlik bo'yicha ularni genetik imkoniyatidan foydalanish 50-55% dan oshmagan.

N.Gnezdilova va boshqalar (2006) Kursk viloyatining Kursk rayonidagi tajriba xo'jaligida simmental zotiga mansub buqachalarni va uni golshtin zoti bilan chatishtirish natijasida olingan har xil genotipdagi buqachalarini 18 oyligigacha o'sish ko'rsatkichlari va go'sht mahsuldorligini o'rganishgan va boshqa genotiplarga (II, III avlod) nisbatan birinchi bo'g'in duragaylarini ustunligini kuzatishgan. Aynan shunday ma'lumotlarni X.Tagirov va boshqalar (2006) ham Boshqirdiston sharoitida olishgan.

O.Gromenko va boshqalar (2006) simmental zotini go'sht mahsuldorligini, qizil golshtin bilan chatishtirishdan olingan I, II va III bo'g'in duragay buqachalarining go'sht mahsuldorligi bilan solishtirib o'rganish maqsadida Kursk kishloq xo'jaligi akademiyasining tajriba xo'jaligida izlanishlar o'tkazishgan. Bu

tajribada ham birinchi bo'g'in duragaylari 18 oyligida 469 kg tosh bosib, o'z tengqurlari sof zotli simmental, ikkinchi va uchinchi bo'g'in duragaylarini shunga mos ravishda 11,0; 7,8; 21,4 kg orqada koldirgan. Nimtalanmagan go'sht og'irligi guruhlarda tegishlicha 245,4; 256,3; 249,2; 235,1 kg, so'yim chiqimi esa 56,4; 57,3; 56,9 va 56,0 % ni tashkil qilgan. Olingan bu ma'lumotlar A.Xoxlova va boshqalar (2006) ilmiy tadqiqotlarida ham olingan.

D.Adushinov (2006) Irkutsk viloyati «Jeleznodorojnik» xo'jaligi sharoitida qora-ola va uni golshtin buqalari bilan chatishtirish natijasida olingan I, II va III bo'g'in avlodlarini o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini va sut mahsuldorligini o'rganib, sof zotliga nisbatan duragay hayvonlarni ustunligini qayd etgan. Uning olgan ma'lumotlarini N.Anoxin (2005), N.Dzyuba va boshqalar (2005), O.B.Sein va boshqalar (2005), I.Skorkina (2005), V. Kosilov va boshqalar (2005) hamda D.V.Stepanov va boshqalar (2006) ma'lumotlarini ham tasdiqlaydi.

Ye.A.Alekseyeva va boshqalar (2005) Kurgan viloyati Ketov rayoni «Razliv» xo'jaligi sharoitida qora-ola zotining sigirlari bilan golshtin buqasini chatishtirishdan olingan birinchi (I guruh), ikkinchi (II guruh) va uchinchi (III guruh) bo'g'in duragay sigirlarini go'sht mahsuldorligini o'rganib, so'yishdan oldingi tirik vazn guruhlarda tegishlicha 559,0; 516,7 va 541,7 kg, nimtalanmagan go'sht og'irligi 242,8; 226,5 va 236,8 kg, so'yim og'irligi 285,4; 267,5 va 277,7 kg va so'yim chiqimi 51,0; 51,7 va 51% bo'lganligini ta'kidlab, ikkinchi bo'g'in duragaylari o'z tengqurlari I va II guruhdan go'sht mahsuldorligi buyicha orqada qolganligini aniqlagan.

I.F.Gorlov va boshqalar (2005) Volgograd viloyati sharoitida golshtin zotini qora-ola uchun «yaxshilovchi» ekanligini ilmiy ishlab chiqarish tajribalari asosida tahlil qilib berishgan.

L.I.Kibkalo (2003), N.I.Jerebilov va boshqalar (2004), O.Gromenko va boshqalar (2006) Kursk viloyati sharoitida simmental zotini golshtin bilan chatishtirish natijasida olingan golshtin qon ulushi 25% (II guruh), 50% (III guruh), 75% (IV guruh) bo'lgan chatishma va sof zotli simmental (I guruh) ni o'sish ko'rsatkichlari va go'sht mahsuldorligi bo'yicha solishtirib o'rganishgan. 19

oyligida nazorat so'yimi o'tkazib, bir xil saqlash va oziqlantirish sharoitida chatishma hayvonlarni so'qimlash samarali ekanligini kuzatishgan.

Golshtin qon ulushi 50% bo'lgan III guruh buqachalarining o'z tengdoshlari qon ulushi $\frac{1}{4}$ va $\frac{3}{4}$ bo'lgan buqachalarga nisbatan tirik vazni, nimtalar og'irligi, lahm go'sht salmog'i va go'shtdorlik koeffitsiyenti bo'yicha ancha ustun ekanligini qayd qilishgan. Xuddi shunday ma'lumotlarni Volgograd viloyati sharoitida A.Belyayev (2004) ham olgan.

O.Getokov va boshqalar (2004) Ingushiston Respublikasi Sunjen tumani general S.S.Oskonov nomli xo'jalik sharoitida qora-ola zotli sigirlarni golshtin buqalari bilan chatishtirish natijasida olingan chatishma hayvonlarining o'sish jadalligi embrion davrida sof zotliga nisbatan biroz sustligini ko'rsatishgan.

Shuning uchun ham birinchi va ikkinchi bo'g'in avlodlarini tug'ilgandagi tirik vazni sof zotligi nisbatan 2,3 va 6,3% ga kam bo'lgan. Ammo o'sishning keyingi davrlarida chatishma hayvonlar ustunlikni qo'lga olishgan. 18 oylikda ular 441,3 va 450,4 kg tirik vaznga yetib, tegishlicha sof zotli tengdoshlarini 9,1 va 27,8 kt. yoki 2,0 va 6,5% ga orqada qoldirishgan. Nimtalar og'irligi sof zotlida 220,6 kg bo'lgan, bu esa birinchi bo'g'indan 13,8 kg yoki 6,3% va ikkinchi bo'g'indan 22,0 kg yoki 10,0% kam demakdir. So'yim chiqimi guruhlarda shunga mos ravishda 55,3; 56,3 va 57,5 % ni tashkil etgan.

A.Samatov (2003, 2004) Tojikiston Respublikasi shimoliy hududi sharoitida qora-ola sigirlarini golshtin zoti bilan chatishtirish natijasida olingan birinchi va ikkinchi bo'g'in avlodlarini go'sht mahsuldorligini qora-ola bilan taqqoslab o'rgangan. 21 oylik qora-ola birinchi va ikkinchi bo'g'in chatishma hayvonlarini tirik vazni mos ravishda 565,8; 569,7 va 579,2 kg bo'lsa, bu ko'rsatkich 24 oylik buqachalarda tegishlicha 628,5; 635,0 va 658,3 kg ni tashkil qilgan. Nimtalanmagan go'shtning og'irligi 24 oyligida 339,4; 343,2 va 357,4 kg, so'yim chiqimi shunga mos ravishda 59,5; 59,6 va 60,5%ga teng bo'lgan. Go'shtning morfologik va kimyoviy tarkibi bo'yicha ham chatishma hayvonlar sof zotliga nisbatan ustun bo'lishgan.

L.S.Laninaning (1991) ta'kidlashicha hayvonlarning genetik potensialini oshishiga buqalarning otalari 40%, sigirlarning otalari 15-20%, buqalarning onalari 35-40% va sigirlarning onalari 5-10% ta'sir qiladi. Shuning uchun ham naslli buqalarni maqsadga muvofiq to'g'ri boqish va o'stirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Z.T.To'raqulov, A.Kaxarov, (1999), L.Antal (2004), P.Proxorenko, J.Loginov (2005, 2008) R.N.Lyashuk (2008), U.Nosirov va boshqalarning (2008) fikrlariga ko'ra, sut yo'nalishdagi qoramollar zotlarini takomillashtirishda va yuqori mahsuldor podalar yaratishda avlodlarning nasl sifati bo'yicha baholangan va yaxshilovchi toifaga ega nasldor buqalardan keng foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Rossiya federasiyasining turli ekologik hududlarida golshtin zotining tekshirilgan naslli buqalaridan va ularni muzlatilgan urug'laridan qora-ola zotining ayrim xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishda, aniqrog'i sut mahsuldorligini yaxshilashda keng qo'llanilib kelinmoqda. Buning natijasida 1,0 mln. boshga yaqin duragay hayvonlar olingan va sigirlarning sut mahsuldorligi o'rtacha 250-300 kg ko'paygan. Ayrim xo'jaliklarda bu ko'rsatkich 380-720 kgni tashkil etgan. (I.M.Dunin va boshqalar 1999).

P.N.Proxorenko, B.P.Zavertyayevlarning (2004) yozishicha hozirgi vaqtda golshtinlashgan qora-ola va golshtin zotini dunyo bo'yicha bitta populyasiyaga birlashtirish masalasi qo'yilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki golshtin zoti yaxshilovchi sifatida kam mahsuldor poda tiplarini sut mahsuldorligi o'rtacha 100 kg ga ko'paytirgan.

Yevropa ittifoqidagi 19,5 mln. bosh yuqori mahsuldor sigirlarning o'rtacha sut sog'imi 6100 kg ni, jumladan Shvesiyada 7852 kg ni tashkil qilgan, Rossiyada bir necha yillardan buyon golshtin bilan chatishtirish natijasida yangi sut yo'nalishdagi tip va zot yaratish borasida keng miqyosda seleksiya ishlari olib borilmoqda. Bunga misol qilib, qora-olani leningrad tipini olish mumkin. Ushbu tip qora-olaga golshtin zotini qonini singdirish yo'li bilan yaratilgan, uning bir laktasiyada sut sog'imi o'rtacha 9230 kg ga yetgan. Bu esa qora-olaga nisbatan

2541 kg ko'p demakdir. Yosh mollarni o'sishi jadal bo'lib qora-olaga nisbatan 57,6 kg tosh bosgan. Yangi tip hayvonlari har xil yuqumli kasalliklarga ancha chidamli.

Jadal texnologik jarayonga moslashuvchan, uning geneologik tarkibi golshtin zotini yaxshi liniya va oilalarini geneologik tarkibidan qolishmaydi. Ularning hozirgi kunda bir qancha liniya va oilalari yaratilgan bo'lib, ayrim oilalarning sut sog'imi bo'yicha potentsiali 10000 kgdan oshib ketgan.

Qora-ola zotiga mansub mollar Respublikamizning barcha viloyatlarida urchitiladi. Umumiy soniga nisbatan, asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida, 10 foiz atrofida esa Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida urchitiladi. Bu zot golland zotini mahalliy mollar bilan chatishtirishdan kelib chiqqan. U Respublikamizdagi urchitiladigan qoramollarning jami soniga nisbatan 41 foizini tashkil etib, mahsuldorligi va bosh soni jihatidan birinchi o'rinni egallaydi.

Qora-ola zotli sigirlar nixoyatda yuqori (4000-6000 kg sut, yog'liligi 3,6-4,0 %) mahsuldorligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston va MDH davlatlari sharoitida bu zotlarning rekordsmen sigirlari 12-16 kg sut berish bilan mashxur. Zotning buzoqlari jadal o'sadi va 12 oyligida tug'ilgandagi vazniga nisbatan 8,6-8,8 barobar, 18 oyligida esa 12 barobar oshadi. Qora-ola zot mollarning go'sht sifati ham yaxshi bo'ladi. Jadal ravishda o'stirilganda buqachalarning kunlik semirishi 1000 grammdan oshadi.

Qora-ola zotli qoramollarni mahsuldorligini takomillashtiradigan va ular uchun «yaxshilovchi» zot deb golshtin zoti qabul qilingan. Shimoliy Amerikada yaratilgan va dunyoga mahsuldorlik xususiyatlari bilan mashxur bo'lgan golshtin zotli mollar sut yo'nalishidagi tana tuzilishga ega. Ushbu zot AQSh va Kanadada son jihatidan sut yo'nalishidagi zotlar ichida birinchi o'rinda turadi. Ularda sutdorlik belgilari yaxshi rivojlangan. Nazorat podalarida bo'lgan sigirlarning sutdorlik miqdori 5500-6000 kilogramm va yog'lilik darajasi 3,6-3,7 foizga teng.

Mahsuldorligi bo'yicha rekordchi hisoblangan sigirlar 20-25 ming kilogrammgacha sut beradi yoki sut yog'iga aylantirilganda 700-730 kilogrammni

tashkil qiladi. Sigirlarning hayoti davomida bergan sut miqdori 130-135 ming kilogrammgacha va eng yuqori kunlik sut sog'imi 100 kilogrammdan oshgan (U.N.Nosirov, 2001, 2002).

Sh.A.Akmalxonov (1973, 1993), professorlar E.Yu.Karchevskiy (1984, 1985 va M.E.Ashirovlar (1994) o'zlarining ilmiy maktabi bilan keyingi yillarda O'zbekistonda qora-ola zotini golshtin zoti bilan qon singdirish usulida chatishtirish ishlarini olib borib, yaxshilanuvchi qora-ola zotini sut mahsuldorligini takomillashtirish borasida ijobiy natijalarga erishgan. Lekin har xil genotipli chatishma hayvonlarni go'sht mahsuldorligi to'g'risda ma'lumotlar deyarli kam o'rganilganligi ta'kidlanadi.

Qormollarning go'sht mahsuldorligini oshirish va uning sifatini yaxshilash borasida ko'plab ilmiy ishlab chiqarish tajribalar o'tkazgan hamda qoramolchilik tarmog'ini nazariy va amaliy tomondan takomillashtirishga katta hissa qo'shgan rus olimlardan: D.L.Levantin (1996, 2001), A.V.Cherekayev (2001), B.A.Bagriy (2001), X.Amerxanov (2004, 2008), shuning bilan bir qatorda O'zbekistonlik olimlardan: U.N.Nosirov (1974), I.X.Xidirov (1982), A.A.Abdurashitov (1985), A.K.Kaxarov (1994), B.O. Abdalniyazovlar (1999) ham chatishma qoramollarni go'sht mahsuldorligini aksariyat hollarda o'z ota-onasidan ustunligini ko'rsatib o'tishgan.

Ye.V.Ilyeglovning (1987) yozishicha Dunyo genofondini sermahsul vakillaridan biri golshtin zotidan qora-ola zotli hayvonlarni xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ularni sof holda urchitganda yuqori oziqa sharoiti talab qilinadi. Chatishma hayvonlarda esa qora-oladan mahalliy sharoitga moslashish xususiyati irsiylangan bo'lib, Moskva viloyatida yangi qoramol tipi yaratish imkonini beradi.

Golshtin zotini mahsuldorligini irsiylanishi bo'yicha mashhurligi to'g'risida ikkilanish bo'lishi mumkin emas. 1985 yilda Kubada bir kunda 110,9 kg va 364 kunlik laktasiya bergan sut 27674 kg ni yoki yog' chiqimi 1051 kg ni tashkil etgan Ubre-Blanka laqabli sigir ham aynan chatishma sigir bo'lib, uning qon ulushini $\frac{3}{4}$ golshtin va $\frac{1}{4}$ zebu tashkil qilgan. Amerikada bir laktasiyada umr bo'yi tegishli

1912 va 7153 kg sut yog'ini bergan Brizvud Petsi Barpontiak hamda Kanadada 17 laktasiyada 189 tonna sut bergan 289 raqamli sigir ham aynan ana shu golshtin zotining vakillari bo'lgan (I.M.Dunin va boshqalar 1999).

A.Balash va boshqalarning (1994) yozishicha golshtinofriz zoti Dunyo bo'yicha aniq bir dastur asosida urchitilib kelmoqda. Ushbu zot har xil ekologik sharoitda tez moslashadi. Ushbu zot sigirlarini konstitusiyasi mustahkam, yengil, ular asov emas insonga tez o'rganadi, shuning uchun 80-150 bosh qilib bir guruhda saqlashga yaxshi o'rganadi. Golshtinlarni urg'ochi tanalari 15 oyligida 350-380 kg tirik vznga ega bo'ladi. Aynan shu vaqtda ularni sun'iy urug'lantirish maqsadga muvofiqdir. Bu zot sigirlarini asosiy qismi inson yordamisiz tug'adi.

Amerika olimlarining ma'lumotlariga qaraganda 90-91% tug'ish «yengil tug'ish» ga kiradi. Golshtin zoti oziqani yaxshi iste'mol qiladi, chiqim deyarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham ularni iqtisodiy ko'rsatkichlari boshqa zotlarnikiga nisbatan 15-20% ko'p bo'ladi. Hozirgi vaqtda bu zot ikki tusda qora-ola va qizil-ola holida urchitiladi. Qora-ola qizil-olaga nisbatan resessiv belgi hisoblanadi. Vengeriya uzoq yillardan e'tiboran simmental, venger qora-olasini golshtin bilan chatishtirish natijasida «Venger golshtino-friz zoti» yaratilgan. Ushbu zotni go'sht mahsuldorligi chatishtirish uchun asos qilib olingan zotdan 8-12% ko'pligi aniqlangan.

V.M.Ivanov (1989, 2005) Stavropol o'lkasi Petrovskiy tumani Kirov nomli xo'jalik sharoitida qizil cho'l va qora-ola zotlariga mansub buqachalarni ayrim mahsuldorlik ko'rsatkichlarini, ushbu zot sigirlarini golshtin buqasi bilan chatishtirish natijasida olingan chatishma hayvonlarning ko'rsatkichi bilan taqqoslab o'rgangan. 424 kunlik so'qimlashdan keyin sof zotli buqachalarni tirik vazni 422 kg bo'lgan. Bu ko'rsatkich chatishma hayvonlarda 443 kg ni tashkil qilgan. Farq 21 kg yoki 5,0 foiz. Nimtalanmagan go'sht miqdori bo'yicha farq chatishma buqachalar foydasiga 18,6 kg yoki 8,6 foizdir. So'yim chiqimi, shunga mos ravishda 55,1 va 57,5 % bo'lgan. Muallif olingan natijalar asosida Stavropol o'lkasida qoramol go'shti yetishtirishni jadallashtirish uchun qizil cho'l va qora-ola zotini golshtin buqalari bilan chatishtirishni tavsiya etgan.

A.P.Kalashnikov, G.A.Rogalskiylar (1987) Sibir chorvachilik ilmiy tadqiqot va loyixa texnologik institutining «Borovsk» dala-tajriba xo'jaligi sharoitida qora-ola zot sigirlar bilan golshtin buqasini chatishtirish natijasida olingan har xil genotipli birinchi bo'g'in (II guruh), ikkinchi bo'g'in (III guruh chatishma hayvonlarni sof zotli qora-olaning (I guruh) ko'rsatkichlari bilan taqqoslashgan, 17 oyligida nazorat so'yim o'tkazilgan. Nimtalarning og'irligi III guruhda 267 kilogrammni tashkil qilib I guruh tengdoshlaridan 25 kg (10,3 %) va II guruhdan esa 2 kg (0,8%) ko'p bo'lgan. So'yim chiqimi guruhlarda tegishlicha 55,4; 55,3; 56,3 foiz bo'lgan.

Mualliflar ikkinchi ishlab chiqarish tajribasida 11 oylik buqachalarni hamma guruhda 18 oyligigacha yarmini binoda bog'lab, yarmini esa bog'lamasdan bo'rdoqilashgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki bu yerda III guruh ya'ni golshtin qon ulushi 50% dan ziyod bo'lgan buqachalar mahsuldorlik bo'yicha boshqa tengdoshlarini orqada qoldirishgan. Hamma guruhlarda bog'lamasdan boqilganlar ijobiy natijalar berishgan. Xususan sof zotli qora-olaning bog'lab boqilgan buqachalarini 18 oydagi tirik vazni 482 kg bo'lgan, bu ko'rsatkich bog'lamasdan boqilganlarda 490 kg ni tashkil qilgan. Farq 8 kg (1,7%). Bu farq II guruhda 5 kg (1,0%) va III guruhda esa 11 kg (2,2%) bo'lgan. Nimtalar og'irligi bo'yicha bog'lab boqilgan ikkinchi bo'g'in duragaylarini esa 9,3 kg (3,4%) orqada qoldirgan. Bog'lamasdan boqilganlarda bu farq 14,8 kg ni (5,6%) va 12,5 kg (4,7 %) tashkil qilgan.

Tajriba oxirida shunday xulosa qilinadiki, haqiqatdan ham chatishma hayvonlarni mahsuldorlik ko'rsatkichlari har qanday holda ham sof zotlidan ustun bo'lgan. Bu esa golshtin zotini qora-ola uchun go'sht mahsuldorligini takomillashtirishda ham yaxshilovchi ekanligini tasdiqlaydi.

A.I.Bichning (2002) fikricha qora-ola zotli sigirlar bilan golshtin zotini chatishtirib olingan chatishma hayvonlarning mahsuldorligi ham sof zotlidan biroz yuqori bo'ladi, ammo keyingi avlodlarda bu ko'rsatkich pasayib ketadi. Lekin bu xulosa A.P.Kalashnikov va boshqalar (1987), M.Spivak (1990), Ye.P.Kremlev, L.M.Lusevich (1991), T.T.Djaparidze, A.K. Milyukov (1992), A.Samatovlarning

(2004) tadqiqotlari bilan tasdiqlanmagan. Mualliflar aksincha golshtin zotini qon ulushi ko'paygan sari go'sht mahsuldorligini ortishini kuzatishgan.

A.K.Qorakulov (1996) Tojikiston Respublikasining Janubiy va Markaziy hududlari sharoitida qora-ola (I guruh), qora-ola x golshtin (II guruh) chatishma buqachalarini go'sht mahsuldorligini o'rgangan. Olingan natijalar shuni kurstganki 21 oylikda sof zotli qora-olaning tirik vazni 479,8 kg bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich chatishma hayvonlarda 484,3 kg ni tashkil qilgan.

Go'sht mahsuldorligini baholash uchun 15,18,21,24 oylikda nazorat so'yimi o'tkazilgan. Barcha o'sish davrida nimtalanmagan go'sht og'irligi, so'yim og'irligi, so'yim chiqimi, laxm go'sht chiqimi II guruxda I guruhga nisbatan 8-17 foizga yuqori bo'lgan. Xuddi shunga o'xshash natijalar M.O.Baratov (1981), Yu.Burdin va boshqalar (1986). B.E.Sangayev (1989), Djexish Axmed (1990), R. Siniverski (1990), Yu.S.Fayzullayev (1993) G.N.Zelenovlarning (2006) ilmiy tadqiqotlarida ham kuzatilgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan. Olimlarning ta'kidlashicha golshtin zoti qora-ola zotining go'sht mahsuldorligiga salbiy ta'sir qilmaydi, aksincha bu belgini takomillashtiradi.

P.S.Sobirov (1991, 1995) ma'lumoti bo'yicha Samarqand viloyati sharoitida golshtin zotining Kondaktr va Xolav laqabli naslli buqalari bilan qora-ola zotini yaxshilash ishlari 1980 yillardan boshlangan. Muallif o'tkazgan tajribalarining natijalari asosida mamlakatimizning boshqa hudulari kabi samarqand viloyati sharoitida golshtin qora-ola zoti uchun yaxshilovchi ekanligini ko'rsatib o'tgan. Chatishtirish natijasida olingan chatishma avlodlarini o'sishi jadal bo'lib, iste'mol qilgan oziqasiga maxsulot birligi bilan haq to'lash xususiyati sof qora-olaga nisbatan yuqori ekanligi ta'kidlangan.

D.S.Adushinov va boshqalar (2002) Irkutsk viloyati Cheremxov tuman «Gulumetskiy» davlat xo'jaligi sharoitida, hayvonlarning genotipiga, yoshiga va tirik vazniga qarab har qaysi guruxda 60 boshdan qora-ola (I guruh), birinchi bo'g'in golshtin duragaylari (II guruh), ikkinchi bo'g'in golshtin duragaylari (II guruh), ikkinchi bo'g'in golshtin duragaylaridan (III guruh) ajratib, ularni bir xil oziqlantirish hamda boqish sharoitida 18 oyligigacha o'stiradi. So'yishdan oldingi

tirik vazni guruhlarda tegishli 450,3; 489,4; va 478,6 kg bo'lgan. Nimtalar og'irligi I guruhda 245,6; II - da 271,7 va III- da 265,9 kg ; so'yim chiqimi esa tegishli 59,7; 61,1 va 60,9 % ni tashkil qilgan. 100 kg tirik vaznga to'g'ri keladigan laxm go'sht I- da 43,4; II - da 45,5 va III-da 45,1 kg bo'lgan. Olingan ma'lumotlar asosida mualliflar golshtin zoti qora-ola zoti uchun yaxshilovchi ekan degan xulosaga kelib, bunda birinchi bo'g'in chatishma hayvonlarda kam bo'lsada geterozis paydo bo'lganligini ko'rsatib o'tishgan.

I.F.Gorlov va boshqalar (2005) ham Volgograd viloyati sharoitida golshtin zotini qora - ola uchun yaxshilovchi ekanligini ilmiy ishlab chiqarish tajribalari asosida tahlil qilib berishgan.

A.Kaxarov va boshqalar (2004, 2005) hamda D.Avazov va boshqalar (2004, 2005) Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani «Imkon» fermer xo'jaligi sharoitida qora-ola zotini golshtin bilan chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'g'in chatishma buqachalarini ayrim xo'jalikka foydali belgilarini sof zotli qora ola bilan taqqoslab o'rganishgan.

Olingan natijalar asosida o'sish jadalligi, iste'mol qilgan ozuqasiga maxsulot birligi bilan haq to'lash, so'yimning miqdori va nisbiy ko'rsatkichlari, laxm go'sht miqdori, go'shtdorlik koeffitsiyenti, go'shtni va terining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha chatishma buqachalar sof zotliga nisbatan ustunligini ta'kidlashgan. Mualliflarning yozishicha chatishma hayvonlarning genomida geterozigot holdagi va dominant holdagi genlar sof zotiga nisbatan ko'p bo'lib, ularning organizmiga moda almashish jarayonini normada bo'lishini ta'minlaydi. Iste'mol qilingan ozuqalarni xazmlanish koeffitsiyenti va organizmga singishi yuqori bo'ladi, natijada o'sish va rivojlanish jarayonlari jadal kechadi. Bu esa o'z navbatida go'sht mahsulдорligini yuqori bo'lishiga olib keladi.

V.Sarapkina va boshqalar (2006) Penza viloyati «Progress» xo'jaligi sharoitida qora-ola bilan golshtin zotini chatishtirish natijasida olingan chatishma hayvonlarini uch guruhga bo'lgan: I guruh golshtin qon ulushi 37,5%; II guruh – golshtin qon ulushi 37,5-62,5% va III guruh- golshtin qon ulushi 62,5 % dan

yuqori bo'lgan buqachalarni va aynan shunday genotipga ega bo'lgan katta yoshdagi sigirlarni go'sht mahsuldorligini o'rganishgan. 18 oylikda o'tkazilgan nazorat so'yim natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, I guruh hayvonlarining nimtalarining og'irligi 194,2 kg bo'lib, II va III guruh tengdoshlariga nisbatan 8,2 kg (4,4%); 10,7 kg (5,8%) ziyod tosh bosgan. Ammo bu ko'rsatkich bo'yicha II guruh sigirlari aksincha o'z tengdoshlari II va III guruhdan mos ravishda 29,4 kg (10,4%); 30,7 kg (10,9%) ustunlik qilgan. Laxm go'sht miqdori bo'yicha ham buqachalardan I guruh (155,2 kg) va sigirlardan esa II guruh (145,0 kg) yuqori ko'rsatkichga erishgan. Mualliflar ushbu mahsuldorlik ko'rsatkichlarini irsiylanish va takrorlanish koeffitsiyentlarini alohida taxlil qilib berishgan.

L.I.Kuzyakinaning (2005) ta'kidlashicha olingan chatishma hayvonlarni nafaqat mahsuldorlik ko'rsatkichlari balki ularning eksteryeri ham yaxshilanib, konstitutsiyasi takomillashib borar ekan.

V.A.Zaxarov va boshqalar (2004) Ryazan viloyati «Stenino» tajriba xo'jaligi sharoitida urchitilayotgan toza zotli qora-ola va Xolmogor zotlarini mahsuldorligini xar xil genotipli golshtin duragaylari bilan taqqoslab o'rgangan, va duragaylarni mahsuldlorligini sof zotlilarga nisbatan 2,9-9,8 ko'p bo'lganligini kuzatishgan.

A.A.Xushvaqtov (2007) sof qora-ola zotli buqachalarni va shu zot sigirlarini golshtin zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish narijasida olingan buqachalarning o'sish, rivojlanishi, ayrim biologik xususiyatlari va go'sht mahsuldorligini Zarafshon vohasi sharoitida o'rgangan. Buning uchun 3 oylik erkak buqachalardan 30 bosh ajratgan, shulardan 10 boshi qora-ola sigirlarni golshtin bilan chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'g'in (II- guruh) va yana 10 boshi ikkinchi bo'g'ini (III - guruh) chatishma avlodlar bo'lib, ularni bir xil asrash va oziqlantirish sharoitida boqqan, parvarishlagan va so'qimlagan.

Ishning uslubiga binoan hayvonlarning go'sht mahsuldorligi va go'shtning sifatini o'rganish maqsadida 18 va 21 oylikda nazorat so'yim o'tkazilgan. Olingan ma'lumotlar barcha hayvonlar jadal o'sganligini zotga xos bo'lgan darajada rivojlanganligini, klinik satatusi, ya'ni organizmning klinik va gematologik

ko'rsatkichlari fiziologik me'yor darajasida bo'lganligini ko'rsatgan. Xususan 21 oylikda tashkil qilingan nazorat so'yimida qora - ola buqachalarining tirik vazni 464,3 kg ni tashkil qilgankn, bu ko'rsatkichlar ularning tengqurlari II va III – guruhlarda 506,1 va 521,3 kg bo'lgan.

Demak farq oxirgi guruh foydasiga, 57,0 kg yoki 12,3 foiz va 15,2 kg yoki 3,0 foizga teng bo'lgan. Buqachalarning bu oydagi so'yim og'irligi tegishli ravishda 269,3; 291,2 va 309,6 kgni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham III guruh buqachalari, o'z tengqurlari I va II - guruhni shunga mos tarzda 40,3 kg yoki 15,0 foiz va 18,4 kg yoki 6,3 foizga orqada qoldirishgan. Go'shtning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha esa, qora – ola zotli buqachalar ustun bo'lishgan.

B.Toshpo'latov (2009) Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani qoramolchilikka ixtisoslashgan «Toshpo'latov Bahodir Jo'raniyozovich» fermer xo'jaligi sharoitida sof zotli qora-ola va bu zot sigirlarini golshtin zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish natijasida olingan turli genotipli yosh golshtinlashgan buqachalarda tajriba o'tkazilgan.

Tajribada har xil genotipli buqachalarning o'sish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan III guruh hayvonlari, o'z tengqurlari I va II guruhdan tug'ilganda, 6, 9, 12, 15, 18 va 21 oyliklarida shunga mos ravishda: 2,9 kg ($r < 0,05$) va 0,4 kg ($r > 0,05$), 16,5 kg ($r < 0,01$) va 7,9 kg ($r < 0,05$), 19,6 kg ($r < 0,01$) va 6,1 kg ($r < 0,05$), 27,5 kg ($r < 0,01$) va 7,3 kg ($r > 0,05$), 38,9 kg ($r < 0,01$) va 10,7 kg ($r < 0,01$), 60,1 kg ($r < 0,01$) va 18,3 kg ($r < 0,05$) ko'p tirik vaznga erishgan. Demak chatishma hayvonlarda o'sish tezligi va o'sish quvati kuchli bo'lgan. 1 kg tirik vazn uchun, I guruh hayvonlari, o'rtacha 9,15 kg oziqa birligi sarflashgan. Bu esa II guruhdan 0,69 kg yoki 8,2% va III guruhdan esa 0,86 kg yoki 10,3 % ga ko'p bo'lgan. Barcha guruhlardagi buqachalarning klinik ko'rsatkichlari fiziologik me'yor darajasida bo'lganligi aniqlangan. Lekin, yoz faslida barcha guruhlarda, boshqa fasllarga nisbatan, hayvonlar qonida eritrositlar, leykositlar va gemoglobin miqdori yuqori bo'lgan. Bu esa, yozda buqachalar organizmida modda almashinuv jarayonlari jadal kechganligidan va ular muayyan iqlim sharoitida yaxshi moslashganligidan dalolat beradi.

M.Axtamova (2009) Qora-ola zotli va turli genotipli golshtinlashtirilgan buqachalarning go'sht mahsuldorligi, uning salmog'i va sifatiga genotipik omillarni ta'sirini o'rganish, buqachalarning xo'jalik foydali belgilarini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. Bunda O'zbekistonning iqlimi keskin o'zgaruvchan hududi hisoblangan Surxon vohasi sharoitida birinchi marta qora-ola va turli genotipdagi golshtinlashtirilgan buqachalarning go'sht mahsuldorligi o'rganilib, xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishda ularning eng maqbul va samarali yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xo'jalikda qora-ola zoti urchitilgan, ushbu hayvonlarni sut mahsuldorligini oshirish va yelinining texnologik xususiyatlarini takomillashtirish maqsadida golshtin zotining naslidan foydalanish natijasida qon singdirish chatishtirish o'tkazilgan va ko'p sonli har xil genotipli chatishma hayvonlar olingan. Ana shu hayvonlardan zot, zotdorligi, tirik vazni, jinsi kabi ko'rsatkichlarini etiborga olib o'xshashlik asosida tajriba uchun birinchi tug'im sigirlari tanlab olingan. Tajribadagi hayvonlarning tirik vaznini o'sish sur'ati bir xil bo'lmagan, tajriba boshida, ya'ni hayvonlarni 6 oyligida III guruhdagi buqachalar I guruhdagi tengdoshlaridan 16,5 kg yoki 15% va II dan 8,0 kg yoki 6,7 % yuqori ko'rsatkichga erishishgan bo'lsa, bu farq tajriba oxirida, ya'ni 21 oylik buqachalarda shunga mos ravishda 59,7 kg yoki 13,0 % va 28,4 kg yoki 5,8 % ga teng bo'lgan. Demak tajriba davomida barcha guruhlardagi hayvonlarni o'sish ko'rsatkichlari jadal bo'lgan. Xuddi shunday farqni bir kunlik o'sish, mutloq o'sish, nisbiy o'sish va o'sish koeffitsiyentlari bo'yicha ham aytish mumkin. Tajribadagi buqachalarning asosiy tana o'lchamlari asosida hisoblangan tana tuzilish indeksleri borasida ham guruhlararo farq aniqlangan. Ayniqsa ko'krak, tos-ko'krak, zichlik va suyakdorlik kabi go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan indekslar III guruh hayvonlarida, I va II guruhlardagi buqachalarga qaraganda ancha yuqori bo'lgan, bu esa ko'krak yaxshi rivojlanganligidan va ular mutanosib tana tuzilishga ega bo'lganligidan dalolat bergan.

M.Narbayeva (2012) O'zbekistonning janubiy hududi sharoitida qora-ola, golshtin zotlari va ularni avlodlarining o'sish, rivojlanish ko'rsatkichlarini, go'sht

va sut mahsuldorligi hamda ayrim biologik xususiyatlarini o'rganadi. Buning uchun kelib chiqishi, jinsi, yoshi, tirik vazni hisobga olingan holda, 3 oylik golshtin, qora-ola zotli va ularning birinchi bo'g'in avlodlariga mansub bo'lgan urg'ochi va erkak buzoqlar ajratilgan.

Tajribadagi hayvonlarning o'sish ko'rsatkichi bo'yicha olingan ma'lumotlar, urg'ochi tanalarga nisbatan buqachalarni va sof zotlilarga nisbatan chatishma avlodlarni tirik vazni jadal suratlar bilan oshganligini ko'rsatadi. 21 oylikda eng yuqori tirik vazn birinchi bo'g'in chatishma buqachalarda kuzatilgan bo'lib, 501,8 kg ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich bo'yicha ular, o'z tengqurlari qora-ola, golshtin zotli va birinchi bo'g'in chatishma urg'ochi tanalar hamda qora-ola va golshtin zotli buqachalarni shunga mos ravishda: 80,8 ($r < 0,01$), 63,5 kg ($r < 0,01$), 42,4 kg ($r < 0,05$), 35,9 kg ($r < 0,05$), 16,1 kg ($r < 0,05$) ortda qoldirgan. Tajriba shunga mos ravishda 12,9 kg ($r < 0,05$), 11,3 kg ($r < 0,05$), 7,8 kg ($r < 0,05$), 6,2 ($r < 0,05$), 2,8 kg ($r < 0,05$), ni tashkil qilgan. Demak chatishma hayvonlarda kam bo'lsada geterozis xodisasi ro'y bergan.

II.MAVZU BO'YICHA MUAMMOLARNING QO'YILISHI VA QO'LLANILADIGAN USLUBIYATLAR

Dunyo chorvachilik tarmog'ida qoramolchilik muhim o'rin tutadi. Buning sababi ko'pgina mamlakatlarda aholini iste'molidagi sut mahsuloti sigirlardan olinadi, sutni qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlarni ham asosiy qismi qoramol sutidan tayyorlanadi, go'sht strukturasi dunyo bo'yicha qoramol go'shti shunga mos ravishda cho'chqa va parranda go'shtidan keyin uchinchi o'rinda turadi va ishlab chiqilayotgan jami go'shtni 24 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Bizning Respublikamizda bu ko'rsatikich 70 foizga yaqindir. Bulardan tashqari qoramollardan olinadigan teri, tuyoq, shox va boshqa mahsulotlar yengil sanoat uchun xom-ashyo hisoblansa, uning go'ngi tuproq unumdorligini oshirish uchun almashtirib bo'lmaydigan qimmatli organik o'g'it sifatida qo'llaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholini jon boshiga to'g'ri keladigan sut, go'sht va ularni qayta ishlashdan olinadigan tayyor mahsulotlar ehtiyoj darajasidan ancha past, shuning uchun ushbu muammoni yechimiga qaratilgan har bir izlanish dolzarb hisoblanadi.

Davlatimiz rahbariyati chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish, sohada samaradorlikka erishishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari bu yo'lda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu qaror chorvachilikni rivojlantirishimizga hamda uni yuritishimizga, chet ellardan mahsuldor mollarni sotib olish, yaratish va boqishning zamonaviy usullarini egallashimizga imkoniyat yaratmoqda. Bu bizga jahon standartlari darajasidagi pog'onalarga chiqishimizga bir imkoniyat bo'lib, nafaqat fermerlarga, balki shaxsiy yordamchi xo'jaliklariga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari va

tomorqachilar uchun yanada kattaroq manfaatli hisoblanadi. Chorvachilik sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar samarasi o'laroq keyingi besh yilda qoramollar bosh soni 129, go'sht yetishtirish 128, sut mahsulotlarini ishlab chiqarish 127 foizga oshib, chorvachilikda yalpi mahsuldorlik 133 foizga ko'paydi.

Joriy yil boshida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha maxsus Dastur qabul qilinib, ijrosini ta'minlash qat'iy nazoratga olindi. Unga ko'ra, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni 2010 yilga nisbatan 112 foizga oshirishning aniq chora-tadbirlari belgilangan.

Dasturda loyihani amalga oshiruvchi har bir hudud, har bir tuman, har bir fermer xo'jaligi, mahallalar, korxona va tashkilotlar, ularning moliyalashtirish manbalari, moddiy-texnika resurslari, asbob-uskunalarini yetkazib beruvchi tashkilotlar, loyihalarni ishga tushirish va dastlabki mahsulot ishlab chiqarish muddatlari, olinadigan umumiy mahsulot hajmi, yaratiladigan ish o'rinlari aniq hisob-kitob qilingan.

Dastur doirasida 3 mingdan ortiq loyiha amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, buning uchun 300 mlrd. so'mga yaqin mablag' ajratiladi. O'tgan qisqa vaqt davomida 1700 ga yaqin loyiha ishga tushirildi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, chorvachilikning eng asosiy tarmog'i bo'lgan qoramolchilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri — bu har bir tumanda ixtisoslashgan xo'jaliklarni tashkil etishdir. Ularda chorva mollari naslini yaxshilash hisobiga mahsuldorligini oshirish, ozuqa bazasini yaratish, servis xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlash va tizimli ravishda iste'mol uchun yetkazib berish yo'lga qo'yilgan.

Shuning uchun ham biz bitiruv malakaviy ishimizni aynan shu muammoni yechimiga qaratdik.

Bitiruv malakaviy ishiga oid ma'lumotlarni kafedra, institut axborot-resurs markazi va internet ma'lumotlaridan foydalanish asosida to'plandi. Bunda respublikamizda va xorijda chop etilayotgan «Selskoxozyaystvennyx jivotnyx», «Zooveterinariya», «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» kabi ilmiy ommabop jurnallari, Samarqand qishloq xo'jalik instituti, Toshkent Davlat agrar universiteti,

O'zbekiston veterinariya, O'zbekiston qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi, Chorvachilik ilmiy tadqiqot institutlarining ilmiy maqolalar to'plami hamda mamlakatimizning chorvachilikka doir Davlat qonunlari, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa statistik, rasmiy va huquqiy manbalardan foydalanildi.

Golshtin zoti qora-ola zoti uchun «yaxshilovchi» hisoblanadi. Chunki bu zot dunyoda genetik salohiyati eng yuqori zot bo'lib, chatishtirish jarayonida bu zotning buqalari avlodlariga yaxshi darajada o'z irsiy belgilarini o'tkazish qobiliyatiga ega. Bu fikrni sut mahsuldorligi bo'yicha qanchalik to'g'ri ekanligini A.V.Verobeyev va boshq. (1990), S.F.Pogodayev va boshqalar (1992), Sh.A.Akmalxonov (1993), M.E.Ashirov (1994), E.Yu.Karchevskiy (1995), U.A.Ballasov (1999), B.P.Zavertyayev va boshqalar (2000), P.N.Proxorenko va boshqalar (2004), U.M.Kuchchiyev (2006), A.A.Boltayev (2007) va boshqalar o'z ilmiy-tadqiqotlarida o'rganishgan. Butun dunyoda muhim va asosiy muammolardan biri ehtiyoj darajasida mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Ushbu muammoni yechimida chorvachilik hal qiluvchi ustuvorlikka egadir. Ko'pgina mamlakatlarda chorvachilik dinamik ravishda rivojlanib, mahsulot ishlab chiqish ko'paymoqda, jadal texnologiyalar o'zlashtirilib hayvonlarni mahsuldorligini oshmoqda. Qora-ola zotli va turli genotipli golshtinlashtirilgan yosh mollarni o'sish va rivojlanishini o'rganish chorvachilikni jadal usulda rivojlanishiga olib keladi. Shularni e'tiborga olib yosh mollarni qoramollarni mahsuldorligini oshirishda, zotlarni to'g'ri tanlash va baholash dolzarb hisoblanadi. Qora-ola zotini buqacha va yosh urg'ochi tanalarini yuqori darajada jadal o'sib, turli yoshda so'yilganda, ularning go'sht mahsuldorligi va go'shtining sifat ko'rsatkichlari deyarli barcha sutbop zotlarining ko'rsatkichidan yuqori ekanligini hamda ushbu zot o'zining go'sht mahsuldorligini, sutbop zotlardan golshtin, qo'shmahsuldor va maxsus go'sht yo'nalishidagi: simmental, shvis, limuzin, sharole, gereford, qozoq oqbosh kabi zotlar bilan yaxshilashi to'g'risida S.Batanov va boshqalar (2009) A.Kochetkov, V.Sharkayev (2009), S.Derevekov, S.Griisnko (2009) I.Zednepryanskiy (2009), V.Levaxin va boshqalar (2009),

Samodelkin, Ye.P.Shiboyevalar (2009) maxsus tajribalar o'tkazishgan. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishini ushbu mavzuga bag'ishladik.

III. ASOSIY QISM

3.1. Golshtin zotiga tavsif

AQSHga golland zotli mollarini olib ketish va golshtin zotini yaratish ishlarining boshlanishi XVII asrning oxirlari va XVIII asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shimoliy Amerikada yaratilgan va dunyoga mahsuldorlik xususiyatlari bilan mashxur bo'lgan golshtin zotli mollar sut yo'nalishdagi tana tuzilishiga ega. Tanasi cho'zilgan va baland bo'yli, sigirlarning yag'rin balandligi 140-143 sm, sutdorlik belgilari yaxshi rivojlangan. Sigirlarning o'rtacha tirik vazni 600-650 kg, ayrimlariniki 800-900 kilogrammgacha yetadi. Mollar tez yetiluvchan, mustahkam konstitusiyali, yelini yaxshi rivojlangan, muskullari sersut mollarga xos ravishda shakllangan.

Golshtin zotli mollar AQSh va Kanadada son jihatidan sut yo'nalishidagi zotlar ichida birinchi o'rinda turadi. Nazorat podalarida bo'lgan sigirlarning sutdorlik miqdori 5500-6000 kilogramm va yog'lilik darajasi 3,6-3,7 foizga teng. Mahsuldorligi bo'yicha rekordchi hisoblangan sigirlar 20-25 ming kilogrammgacha sut beradi yoki sut yog'iga aylantirilganda 700-730 kilogrammni tashkil qiladi. Sigirlarning hayoti davomida bergan sut miqdori 130-155 ming kilogrammga va eng yuqori kunlik sut sog'imi 100 kilogrammdan oshgan.

Naslchilik ishlarida mahsuldor mollarni baholash va tanlashdan amaliyotda samarali foydalanishga katta ahamiyat beriladi. Jumladan, golshtin zotli mollar podalarida o'z avlodining sifati bo'yicha baholanib asl buqa, deb tanlab olinganlarigina sun'iy urug'lantirishda ishlatiladi. Tana va g'unajinlarning parvarishi jadal olib borildi hamda ularni sersut qilib tayyorlash sharoitlari yaratildi. Natijada sigirlarning sersutligi birinchi tug'ishidayoq jadal ko'tariladi. Kanada sharoitida parvarishlangan «Femko-Alma» laqabli sigir birinchi tug'ishi davomida 9323 kilogramm, yog'liligi 4,94 foiz va «Karneyshn Matador» laqabli sigir 13151 kilogramm, yog'liligi 3,2 foiz miqdorida bo'lgan sut bergan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

AQSh va Kanadada golshtin zotli mollarning ikki xili qora-ola va qizil-ola tusda bo'lgan podalari ustida mustaqil naslchilik ishlari olib borilmoqda. Ular tana tuzilishligi va mahsuldorligi bo'yicha deyarli bir-birlaridan farqlanmaydi.

Golshtin zoti bo'yicha xulosa qilib aytganda, bunday zotli mollarni tanlash va saralash, ularning yirik tana tuzilishligiga va sut mahsuldorligiga e'tibor berish asosida golshtino-friz yoki golshtin nomi bilan atalmish qoramol zoti yaratilgan va ular o'z sut mahsuldorligi bo'yicha qora-ola zotli mollar ichida tan olingan hamda boshqa davlatlarga yaxshilovchi zot sifatida ko'plab tarqatilgan.

Jumladan, Yevropa davlatlariga - Shvesiya, Daniya, Fransiya, Germaniya, Angliya va sobiq Ittifoq davlatlarida (Rossiya Federasiyasi, Belorussiya, Estoniya, Ukraina va hokazo) keng tarqalgan. 1956 yili AQShdan Rossiya Federasiyasining «Yermolino» tajriba xo'jaligiga 45 bosh g'unajin va 3 bosh buqa olib kelingan. Bu mollar mahalliy sharoitga yaxshi moslashib, birinchi laktasiyasidayok o'rtacha 4375 kilogrammdan sut bergan, sutning yog'lilik darajasi 3,75 foizga teng bo'lgan. Uchinchi laktasiyadagi sut sog'imi 5249 kilogrammga ko'tarilgan. «Yevrmolino» xo'jaligining tabiiy-iqlim sharoitida parvarishlangan mollarning I-IV ekologik generasiyasi oziqlantirish me'yoriga botiq holda o'rtacha 4047 kilogrammdan 4730 kilogrammgacha sut bergan. Qora-ola zotli mollarni golshtin zoti bilan chatishtirishda duragay mollarning sut mahsuldorligi ko'tarilgan (I avlod sut miqdori 4431 kilogramm va uning yog'lilik darajasi 3,71%) yelin shakli yaxshilangan, yelinning oldingi qismidan sog'ib olingan sut miqdori 43 foizga to'g'ri kelgan, sut berish tezligi 1,67-1,85 kg minutga teng.

1968-1973 yillarda Kanadadan sobiq Ittifoqqa 1250 bosh g'unajin va 46 bosh buqa olib kelingan bo'lib, ularning ko'pchiligi (549 boshi) Moskva viloyatining «Zarya kommunizma» naslchilik zavodida joylashtirilgan. Bu mollar sermahsul podalardan keltirilgan. Jumladan, keltirilgan g'unajinlar onalarining sut sog'imi o'rtacha 6681 kilogrammga va yog'liligi 3,87 foizga, sut yog'i 258 kilogrammga teng. Erkak mollar onalarining sog'imi 8273 kilogramm, yog'liligi - 4,12 foiz va otalari onalariniki tegishlicha - 10046 kilogramm va 3,88 foizga teng. Xorijdan olib kelingan mollar barcha xo'jaliklar sharoitida yuqori mahsuldorlik

xususiyatlarini namoyon etgan. Birinchi sog'imdagi sigirlarning sut sog'imi «Zarya kommunizma» xo'jaligida 6225 kilogramm, yog'lilik darajasi 3,00%, To'la viloyati xo'jaliklarida - 5356 kilogramm va 3,59 foiz, Latviyaning tajriba stansiyasida - 5882 kilogramm, 3,63 foiz, Kiyev viloyatining «Pskovskiy» xo'jaligida - 5944 kilogramm va 3,52 foizga teng. Yukoridagi xo'jaliklarda birinchi sog'imi bo'yicha rekord qo'ygan sigirlarning sut sog'imi 8200-9000 kilogrammga, sut yog'liligi 3,31-3,50 foizga va sut yog'i 290-307 kilogrammga to'g'ri kelgan. Birinchi tuqqan sigirlarning tirik vazni 560-570 kilogramm, yag'rin balandligi 133 sm, ko'krak chuqurligi -70,8, ko'krak kengligi - 40,5, ko'krak aylanasi - 198 sm. Tana indeksleri quyidagicha: baland oyoqligi -46,7, cho'zilganligi -114, ko'krakdorligi -57,2, to'lishganligi 123,9 va suyakdorligi - 14,9 foiz. Keltirilgan sigirlarda vannasimon shakldagi yelin 76,5 foiz, kosasimon - 17,6 va 5,9 foiz sigirniki - dumalok shaklda. Yelin indeksi - 42-43 foiz. 1970-1990 yillar mobaynida sobiq Ittifoqda juda ko'p miqdordagi golshtin zotli mollar AQSh va Kanadadan olib kelingan va reproduktor xo'jaliklar tashkil etilgan. Qora-ola zotli mollarni chatirishda «yaxshilovchi» zot deb qabul qilingan. O'zbekistonga golshtin zotining buqalari 1965 yildan boshlab olib kelingan va qora-ola zotli sigirlarni chatishtirish ishlari tashkil kilingan. Uyes Ideal, Montvik Chifteyn va boshka tizimlarga mansub bo'lgan buqalar foydalanilgan. 1985-1987 yillarda golshtin zotli mollar ko'p miqdorda (2000 boshdan ortiq) O'zbekistonga olib kelingan hamda Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Qashkadaryo viloyati xo'jaliklarida joylashtirilib, to'qqizta reproduktor xo'jaliklari va fermalari tashkil qilingan. Bu zotli mollar birinchi sog'imidayok 4000-5000 kilogrammdan sut bergan. Lekin keyingi yillar davomida xo'jaliklarda oziqlantirish me'yorining keskin pasayishi va parvarishlash sharoitlariga bo'lgan e'tiborsizlik golshtin zotli mollardan foydalanish samaradorligini ta'min etmadi. E.Yu.Karchevskiy, M.I.Ashirov va boshqalarning (1980-1995 y.) ma'lumotlariga ko'ra, qora-ola zotli sigirlarni golshtin zoti bilan chatishtirish yaxshi oziqlantirish sharoitlarida ijobiy natija bergan. B.Salimboyevning ma'lumotiga ko'ra II va III avlod duragaylarining go'sht mahsuldorligi jadal parvarishlashda keskin ko'tarilgan. 25 oyligida tirik

vazni 675 va 712 kilogrammga, so'yim vazni 365 va 401 kilogrammga, suyim chiqimi 58 foizga yetgan.

Alohida takidlab o'tish kerakki, qora-ola zotli sigirlarni golshtin zoti bilan chatishtirish ishlarini fakat yuqori mahsuldorli podalarda va oziqlantirish me'yori yuqori bo'lgan xo'jaliklarda o'tkazish tafsiya etilgan. Aksariyat holda chatishtirish salbiy natijalarga olib keladi.

3.2. Qora-ola zotiga tavsif

O'zbekiston mintaqasiga qora-ola zotli qoramollar 1882-1885 yillardan boshlab olib kelingan. Armfeld ma'lumotlariga ko'ra, 1882 yili Toshkent qishloq xo'jaligi maktabiga 1 bosh buqa va 5 bosh tana keltirilgan. 1885 yili ikkinchi bor 1 buqa va 2 g'unajin olib kelingan. T.F.Tavildarovanning ma'lumotiga ko'ra, o'sha davrda ko'chib kelgan nemis oilariga parvarishga berilgan. Ular bu qora-ola zotli mollarni kupaytirib, Avliyoota viloyati hamda Toshkent shahri atrofida yashovchi rus oilalariga sota boshlashgan. Bu mintaqalarda ularni sof holda urchitish va mahalliy qoramollar bilan chatishtirish natijasida Talas vodiysida qora-ola zotli mollarning Avliyoota xili va Toshkent shahri atrofida Toshkent xili shakllana boshlangan. Yana shunday fikrlar ham borki, Toshkent shahriga yaqin joylashgan "Krplonbek" tayanch punktida mahalliy zebusimon qoramollarni, avvalo shvis, so'ngra simmental va golland zotlari bilan chatishtirish natijasida qora-ola mollar guruhi yaratilgan. Bu yerdagi qora-ola zotli mollar podalari asosan golland zoti bilan chatishtirish hamda Talas vodiysidan Avliyoota qora-ola mollarini olib kelish hisobidan kengaytirilgan.

Shunday qilib, O'zbekistan sharoiti uchun mos kelgan qora-ola zotli mollarning soni ko'paytirilgan hamda keyinchalik borib Toshkent va Sirdaryo viloyati xo'jaliklari uchun rayonlashtirilgan. Xo'jaliklarda mollarni boqish sharoitlari yaxshilanib, oziqlantirish me'yori ko'tarilib borishi bilan qora-ola zotli mollar O'zbekistonning boshqa bir qancha viloyatlariga keng tarqala boshlandi. O'zbekistonda qora-ola zotli mollarni shakllantirish va ularni takomillashtirish

borasidagi naslchilik ishlariga uzoq yillar olimlardan T.F.Tavildarova, A.K.Lvovich, E.Yu.Karchevskiy va boshqalar rahbarlik qilib, yaxshi natijalarga erishgan. Professor E.Yu.Karchevskiy O'zbekiston qora-ola zotli mollarning shakllanish va takomillashish jarayonlarini quyidagi davrlarga ajratgan:

- Birinchi davr (1925-1938) jamoa va davlat xo'jaliklarini tashkil qilish jarayonida har xil zotdor va duragay mollarni O'zbekistonga olib kelish bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, olib kelingan duragay mollar ichida golland mollari ko'pchilikni tashkil qilgan. Toshkent atrofidagi xo'jaliklarda yaratilgan qoramollar golland zotli mollarning duragaylari bo'lgan. Ular boshqa zotli mollarga nisbatan o'z mahsuldorligi bilan ajralib turgan. Jumladan, "Qovunchi" fermasida sigirlarning tirik vazni 350- 400 kilogrammni va sut sog'imi 3500-4000 kilogrammni tashkil qilgan.

1932 yili o'tkazilgan chorvadorlar syezdida Toshkent shahri atrofida urchitilayotgan mahsuldor qora-ola mollar guruhiga "Toshkent atrofidagi" mollar xili nomini berish taklif etilgan. 1934 yili mavjud qoramollar podalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ekspedisiya natijasida ularni golland zoti bilan chatishtirish ishlarini davom ettirish fikri o'rtaga tashlangan.

1935 yili «Toshkent atrofi mollari» ustida naslchilik ishlari olib borish maqsadida golland mollarning davlat naslchilik xo'jaligi tashkil etildi. 1937 yildan boshlab golland zotining duragaylari Saratov, Volgograd va Novosibirsk viloyatlaridan ko'plab olib kelindi va «Toshkent atrofi» xilidagi mollarni chatishtirish davom ettirildi. Gollandlashtirilgan mollar ustida tanlash va saralash ishlari olib borildi. Duragay mollarning sersutligiga va uning seryog'ligiga katta e'tibor berildi.

-Ikkinchi davr (1939-1950) O'zbekistonda golland zotli qoramollarning naslchilik bazasini yaratish bilan xarakterlanadi. Bu davrda Toshkent viloyatining Chinoz tumanida «Vrevskiy №3» va «Vrevskiy №4» naslchilik xo'jaliklari tashkil qilinib, 1939-1940 yillari nasldor podalari shakllantirildi. A.S.Grameniskiyning ma'lumotiga ko'ra, shu yillari O'zbekistonga 3746 bosh shvis, qizil cho'l va

golland zotli mollar keltirilgan. Shulardan 782 bosh golland zotli mollar Vrevskiy nomli xo'ja liklariga taqsim qilingan.

1941 yillari sof zotli va duragay golland mollardan 142 bosh Saratov viloyatidan olib kelingan. Ular o'rta sifatli mollar bo'lgan. 12 oylik urg'ochi mollarning vazni 225-236 kilogramm, 18 oylik - 295-309 kilogramm va 24 oyliginiki - 338-367 kilogramma to'g'ri kelgan. Onalari sut sog'imi 3200-3936 kg, uning yog'liligi 3,56-3,77 foiz va otalarining onalari mahsuldorligi tegishlicha 5072-5455 kilogramm va 3,46 foizga teng. Naslchilikda ishlatish maqsadida olib kelingan buqalar golland zotining mahsuldor buqalar tizimiga xos bo'lganlar. Jumladan, golland zotining friz tizimidan Yan-Niko hamda o s t f r i z tizimidan «Inder 191», «Yunius 0014», «Tantalus 203» va hokazo buqalar "Molochnoye" naslchilik xo'jaligidan olib kelingan.

1942 yillardan boshlab, golland naslchilik davlat xo'jaligi Vrevskiy nomli naslchilik xo'jaliklarida yaratilgan buqalar hisobidan to'ldirila boshlandi. Bu ikki naslchilik xo'jaligi reproduktorlik vazifasini bajarib, boshqa xo'jaliklarga urg'ochi mollar yetkazib berdi. Jumladan, 1942 yili hozirgi Sirdaryo viloyatidagi "Malik" tajriba xo'jaligining podasi shakllantirildi.

1940-1949 yillar davomida golland zotlaridan foydalanish ikki yo'nalishda olib borildi. Ular sof holda urchitildi hamda mahalliy mollar bilan chatishtirildi.

-Uchinchi davrda (1950-1957) Rossiya va Boltiq bo'yidan O'zbekistonga ko'plab qora-ola zotli mollar olib kelindi va shuning asosida nasldor podalar yaratildi. Jumladan, Estoniya, Latviya va Rossiyadan 1956 yili 1767 bosh qora-ola zot mollar olib kelinib, Toshkent viloyati xo'jaliklariga tarqatildi. Birgina «Vrevskiy №3» reproduktor xo'jaligi 1950-1956 yilda 2286 urg'ochi mollar yetkazib bergan.

-To'rtinchi davrda (1957-1964)Toshkent naslchilik stansiyasi tashkil etildi va viloyat xo'jaliklari bo'yicha naslchilik ishlari olib borildi. Toshkent naslchilik stansiyasi Estoniya va Gollandiyadan olib kelingan hamda "Chinoz" naslchilik xo'jaligida yetishtirilgan buqalar hisobidan to'ldirildi.

Estoniya, Latviya va Rossiyadan olib kelingan 9382 bosh qora-ola zotli mollar hisobidan Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlarda naslchilik fermalari tashkil qilindi. Saqlash va oziqlantirish sharoitlari yaxshi tashkil qilingan xo'jaliklarda mollarning yuqori mahsuldorlik xususiyatlari namoyon bo'ldi. Toshkent viloyatining "Politotdel" (hozirgi "Do'stlik") jamoa xo'jaligida va Samarqand viloyatining "Bog'izag'on" davlat xo'jaligidagi birinchi tuqqan qora-ola zotli sigirlarning sut sog'imi 3000-3100 kilogrammni va katta yoshdagilarniki 3590-3660 kilogrammni tashkil qildi. Sutning yog' miqdori 3,6-3,7 foizga to'g'ri keldi. Qora-ola zotli mollarning birinchi bor naslchilik zavodlari "Chinoz" davlat xo'jaligi, "Qizil shalola" tajriba xo'jaligi, "Malik" va "Politotdel" xo'jliklari asosida tashkil etildi.

Qora-ola zotni takomillashtirish naslchilik-seleksiya ishlarida golland va eston qora-ola zotli mahsuldor buqa avlodlaridan samarali foydalanildi. "Chinoz" naslchilik zavodida golland zotida mashxur bo'lgan «Annas-Adema 30587» buqasi tizimiga xos bo'lgan «Sam 4084» va «Viske 4090» buqalari tanlab olindi hamda saralash ishlarida keng foydalanilib, yangi zavod tizimiga asos solindi.

Beshinchi davr (1965-1990) O'zbekistonning barcha viloyat xo'jaliklarida qora-ola zotli mollarni keng miqyosda urchitish, ularning mahsuldorlik va nasldorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan xarakterlanadi. 1972-1975 yillari qoramolchiligi rivojlangan davlatlardan yuqori nasldorli mollar olib kelindi. Jumladan, Germaniyadan 639 bosh va Polshadan 517 bosh, jami 1156 tana va g'unajin keltirildi. Shular asosida Namangan viloyatida «Qizil Rovat» xo'jaligida qora-ola zotning reproduktori yaratildi va Toshkent viloyatidagi "Besh yillik", "Politotdel", "Qizil shalola", "Volkovo" hamda Sverdlov nomli xo'jaligi podalari to'ldirildi. Shu davr ichida O'zbekistonda urchitilayotgan qora-ola zotli mollarning soni 90 ming boshdan 450 ming boshga yetkazildi. Sof zotli mollar negizi 50 foizga ko'paydi. Zot andozasi talabiga javob beradigan mollar salmog'i 77 foizni va shu jumladan, sigirlar 75 foizni tashkil etdi.

Eston qora-ola zotli buqalar tizimidan samarali foydalanildi. «Lindberg N-2363», «Kaxur N-4036», «Neero ESNG-173» Eston qora-ola zotli hamda «Annas-

Adema 30587», «Xiltes Adema 37910», «Niko 31652» golland zotli buqalar avlodlari naslchilikda yaxshi natijalar berdi. Qora-ola zotining Estoniya seleksiyasiga xos bo'lgan «Reynok 119» laqabli buqaning yangi zavod tizimi tashkil qilindi.

Qora-ola zotli mollarning O'zbekiston xili o'zining tana tuzilishi va mahsuldorlik xususiyatlari bilan qora-ola zotli mollarga xosdir. Mollar yirik va sersut tana tuzilishi xilida. Mollarning o'sish va ulg'ayish xarakteri ham yuqori me'yorda o'tadi. Bu zotlarning tug'ilgandagi tirik vazni 28-32 kilogramm, 6 oyligida - 135-150 kilogramm, 12 oyligida - 220-250 kilogramm va 18 oyligida - 300-330 kilogramm. Sigirlarning o'rtacha tirik vazni 450-500 kilogramm, ayrimlari 700 kilogrammgacha yetadi. O'zbekiston davlat naslchilik kitobiga yozilgan sof qora-ola zotli sigirlarning sut sog'imi 4773 kilogramm va uning yog'lilik darajasi 3,6 foiz. Duragay III va IV avlod sigirlarning sut mahsuldorligi tegishlicha 4738 kilogramm va 3,67 foiz. Naslchilik zavodlarida rekordchi sigirlar ham yetishib chiqqan. "Chinoz" naslchilik zavodida parvarishlangan "Chyolka 860» laqabli sigir beshinchi tug'ushida 10518 kilogramm sut bergan. Yog'lilik darajasi 3,8 foizni tashkil qilgan.

1970-1975 yillardan boshlab qora-ola zotli mollarni golshtin zoti bilan chatishtirish amalga oshirildi. Keyinchalik golshtin zoti qora-ola mollarni «yaxshilovchi» zot deb qabul qilindi va rejali ravishda qora-ola zotli mollarni golshtinlashtirish avj oldirildi. Golshtin zotli mollarning birinchi, ikkinchi va uchinchi avlod duragaylari ko'paydi. Oziqlantirish va saqlash sharoitlari yaxshilangan xo'jaliklarda golshtin zotli mollarning mahsuldorligi sezilarli darajada ko'tarildi. Mollarning tana tuzilishi va ayniqsa, yelinining morfo-funksional xususiyatlari yaxshilandi.

Tojikiston, Kirg'iziston va Turkmanistonga ham qora-ola zotli mollari tez kirib keldi. Ular sof holda urchitilib naslchilik xo'jaliklari tashkil qilindi. Ko'plab duragay mollar olindi va qora-ola zotli mollar podalari kengaytirildi. Ayniqsa, xo'jand viloyati tabiiy-iqlim sharoiti qora-ola zotli mollarni urchitish uchun qulay keldi. Bu mintaqada bir necha naslchilik zavodlari va reproduktor xo'jaliklari

yaratildi. Sigirlarning sut sog'imi 4500-5000 kilogrammni tashkil qildi. Eston qora-ola, golland zotlarining mahsuldor buqalar tizimlaridan seleksiya ishlarida unumli foydalanildi. Talas vodiysi hamda Jambul viloyati xo'jaliklarida qora-ola zotli mollar podalari tez shakllandi va takomillashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, qora-ola zotli mollar O'rta Osiyo mintaqasidagi mahalliy qoramollarni yaxshilashda hamda mahsuldor mollar podalarini yaratishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Avliyoota va bushuyev zotlari ham qora-ola zotli mollar ishtirokida yaratilgan.

3.3.Golshtinlashtirilgan har xil genotipli qora-ola zotli yosh mollarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari

Hayvonlarning mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va uning salmog'i hamda sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri ularning tirik vazni hisoblanadi. Bu ko'rsatkich hayvonlarning o'z ota-onalaridan jinsiy xujayra orqali o'tkazilgan irsiy asos-genotip va ular yashaydigan tashqi muhitning fenotipik omillarning murakkab harakati natijasida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda hayvonning o'sish va rivojlanishi, zigota hosil bo'lgan paytdan boshlanib, organizmining butun hayoti davomida irsiy omillar hamda tashqi muhit ta'sirida kechadi. Muayyan irsiy negizga ega bo'lgan organizm uchun qulay fenotipik muhit yaratib berilsagina, u mahsuldorlik bo'yicha o'z genetik imkoniyatini to'liq yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham tajribadagi hayvonlarni yoshligidan jadal usulda boqib, mo'l-ko'l to'yimli ozuqalar bilan oziqlantirish ularning tirik vazniga, o'sish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarilayotgan jami qoramol go'shtining 60 - 65 foizi sutbop zotlardan olinayotganini e'tiborga olsak qora-ola zotining qoramol go'shti ishlab chiqarishni ko'paytirishdagi o'rni qanchalik katta ekanligini tushunish qiyin emas.

Bizning Respublikamiz xo'jaliklarida urchitilayotgan barcha qoramollarni, qora-ola zoti 41 foizini tashkil qiladi. (U.Nosirov va boshqalar 2003). Demak, 2001 yil 1 yanvar xolati bo'yicha mavjud bo'lgan jami 9,2 mln. qoramolning 3,8

mln. boshdan ortig'i qora - ola zotli qoramollar tashkil qilar ekan. Ushbu zotga mansub hayvonlar Mamlakatimizning deyarli barcha xududlarida urchitish mumkin.

Qora-ola zotiga mansub mollar respublikamizning barcha viloyatlarida urchitiladi. Umumiy soniga nisbatan, asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida, 10 foiz atrofida esa Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida urchitiladi. Bu zot golland zotini mahalliy mollar bilan chatishtirishdan kelib chiqqan. U Respublikamizdagi urchitiladigan qoramollarning jami soniga nisbatan 41 foizini tashkil etib, mahsuldorligi va bosh soni jihatidan birinchi o'rinni egallaydi.

A.Xushvaqtov (2007) Zarafshon vohasi sharoitida qoramol go'shti yetishtirishni ko'paytirish muammosini hal qilish maqsadida, voha sharoitida keng tarqalgan va o'zining ayrim xo'jalik belgilarini golshtin zoti bilan yaxshilashga muxtoj bo'lgan qora - ola va har xil genotipli golshtinlashtirilgan buqachalarni tirik vaznini o'sishi, go'shtining sifat ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan navli bo'laklarni o'rgangan .

Qoramollarni go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan biri ularning tirik vaznidir. Shuni e'tiborga olgan holda tajribadagi mollar tirik vaznining o'zgarishi, har bir o'sish davri bo'yicha alohida aniqlangan, olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumolaridan ko'rinib turibdiki, har xil genotipli 3 oylik buzoqlar tirik vaznining farqi uncha katta bo'lmagan. Sof qora-ola zotli buzoqlari bu ko'rsatkich bo'yicha II va III guruh (golshtinlashgan) tengdoshlaridan tegishli 3,7 kg yoki 4,7 % va 6,8 kg yoki 8,7 % orqada qolgan. III guruh buqachalarning tirik vazni 12 oyligida 263,2 kg ga yetgan. Bu esa I guruhga nisbatan 31,2 kg ($R < 0,01$) yoki 13,4 % va II guruhga nisbatan esa 8,2 kg yoki 3,2 % ko'pdir. Shuni ta'kidlash lozimki, 15 oylikdan 18 oylikkacha o'sish ancha jadal o'tgan. Tajribaning oxirida, ya'ni 21 oyligida III guruhdagi golshtinlashgan buqachalarning tirik vazni 521,3 kgga yetib, I guruhdagi buqachalarga nisbatan 57,0 kg yoki 3,0 % ko'p bo'lgan.

Tajribadagi buqachalar tirik vaznining o'zgarishi

Yoshi, oy	p	Guruhlar		
		I	II	III
3 oylik	10	78,2±2,3	81,9±2,2	85,0±3,0
6 oylik	10	128,7±2,1	137,0±1,5	141,0±3,9
9 oylik	10	172,0±2,6	187,0±1,5	194,2±2,9
12 oylik	10	232,0±1,7	255,0±1,5	263,2±2,2
15 oylik	10	304,0±3,6	335,1±2,0	346,0±2,3
18 oylik	10	390,0±3,6	423,1±1,3	437,3±2,4
21 oylik	5	464,3±3,8	506,1±5,4	521,3±3,7

So'yim ko'rsatkichlari bo'yicha 1,5 yoshli sof zotli qora – ola (1 guruh) buqachalar so'yilganda 1- navli go'sht bo'laklari 65,7 kg bo'lib, o'z tengdoshlari II va III guruh tengqurlaridan 6,5 kg ($R<0,05$) yoki 10,0 %, 9,0 kg ($R<0,01$) yoki 13,7 % ga orqada qolgan, 21 oylikdagi nazorat so'yimida bu farq shunga mos ravishda: 8,1 kg ($R<0,05$) yoki 10,3 % va 12,3 kg ($R<0,05$) yoki 15,6 % ga teng bo'ldi. II – guruhdagi hayvonlar bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinda bo'lib, 1,5 yoshli III – guruhdagi tengdoshlaridan 2,5 kg ($R<0,05$) yoki 4,8 % ga orqada qolgan.

Eng sifatli hisoblangan ko'krak qismi 1 guruhda har ikkala so'yimda ham 9,1 va 13,4 kg ni tashkil qilgan. Bu esa II – guruhdagi tengdoshlariga nisbatan 1,2 kg ($R<0,01$) yoki 13,2 % va 2,2 kg III – guruhdagi tengqurlaridan 16,4 % kam demakdir.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha 1 guruh buqachalari III – guruhdagi tengqurlaridan 2,9 kg ($R<0,01$) yoki 31,8 % va 3,6 kg ($R<0,01$) yoki 26,9 % kam bo'lgan. Biqin go'shtining salmog'i ham III – guruhdagi hayvonlarda yuqori bo'lib, shunga mos ravishda 1-guruhga nisbatan 1,4 kg ($R<0,01$) yoki 17,2 %, 2,2 kg ($R<0,01$) yoki 23,6 % va II – guruhga nisbatan esa 0,5 kg ($R<0,05$) yoki 5,6 %; 0,5 kg ($R<0,05$) yoki 4,2 % ko'p bo'lgan. Jami ikkinchi navli go'sht bo'laklari

1,5 yoshli 1 guruh buqachalaridan 31,8 kg bo'lgan, bu esa II – guruhdan 4,3 kg ($R < 0,05$) yoki 13,5 %; III – guruhdan esa 5,5 kg ($R < 0,05$) yoki 17,3 % ga kamdir. 21 oylikda o'tkazilgan nazorat so'yimida bu ko'rsatkich bo'yicha guruhlararo farq tegishli: 2,5 kg ($R < 0,05$) yoki 6,3 % va 6,9 kg ($R < 0,01$) yoki 17,5 % bo'lgan. Uchinchi navli go'sht bo'laklari bo'yicha guruhlararo farq sezilarli darajada bo'lmagan.

Yosh ulg'ayishi bilan bu ko'rsatkich ancha ko'paygan va 21 oylikda shunga mos ravishda: 1 guruhda 5,10 II – guruhda - 5,28 va III – guruhda - 6,29 % ga yetganligi aniqlangan. Eng kam ko'rsatkich 4,80 (18 oylik I – guruh) bo'lgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich esa 6,29 % ni (21 oylik va III – guruh) tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, hayvonlar go'sht mahsuldorligi va sifati ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimlari zot xususiyatlari xamda oziqlantirish me'yori va uning to'yimlilik darajasidir. Shunday qilib golshtinlashgan buqachalar o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha o'z tengdoshlaridan ustun bo'lgan.

Ma'lumki tirik organizm shaxsiy taraqqiyotidagi sifat o'zgarishlarning farqlanishi rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi, u hujayra, to'qima va a'zolarining ixtisoslashishi va murakkablashishi, eski xususiyatlar yo'qolib, yangi xususiyatlar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Bu jaaryonda morfologik, biokimyoviy va fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi.

Organizmning rivojlanishi modda almashinuvi ya'ni assimilyasiya va dissimilyasiya jarayonlarining nisbiy o'zgarib borishi natijasida yuz beradi. Organizm taraqqiyotida har bir hujayra to'xtovsiz o'zgarib, unda doimo moddalarning yemirilishi va yangidan tiklanishi ro'y beradi. Boshqacha qilib aytganda yashash jarayonida hujayra va to'qima moddalari yemirilib, issiqlik energiyasi ajralib, hayot uchun muhim bo'lgan boshqa moddalarga - fermentlar, gormonlar va oqsillarga aylanadi. Ya'ni bunda fiziologik regenerasiya yuz beradi. Bu esa rivojlanishning asosiy shaklidir. Shu narsa aniqlanganki rivojlanishda hayvon tanasi takomillashib boradi. Ya'ni tashqi tuzilishi o'zgaradi va bu o'zgarish

ularning mahsuldorligi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ilmiy-tadqiqot ishlarida hayvonlarning tashqi ko'rinishi yoki tana shakli to'g'risida aniq va to'liq ma'lumot beradigan eksteryerini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Professor U.N. Nosirovning (1971, 2001) fikricha, eksteryer bo'yicha qoramollarning ma'lum bir iqlim sharoitida bioekologik jihatdan chidamliligi va moslashish qobiliyati aniqlanadi. Ular shu sharoitda yashabgina qolmay, balki avlod qoldirish va mahsulot berish xususiyatiga ham ega bo'ladi. Qoramollarning go'sht mahsuldorligi ularning ayrim eksteryer xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham qoramol go'shti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan dehqon va fermer xo'jaliklarida qoramollarni eksteryer bo'yicha baholash muhim amaliy ahamiyatga egadir. Eksteryer bo'yicha qoramol zotlari o'rtasidagi farq yoshlikdanoq ko'zga tashlana boshlaydi. Bu tajribada ham bu fikr yana bir bor isbotlanib, buzoqlarning yoshligida umurtqa, ko'krak va bosh suyaklarining jadal o'sishi, aksincha ilik suyaklarining sekin rivojlanishi kuzatilgan. O'sishning keyingi davrlarida ham eksteryer ko'rsatkichlar bo'yicha farq kuzatilgan.

Buni biz matndagi javdaldan ham bilishimiz mumkin. -jadvaldan ko'rinib turibdiki genetik kelib chiqishi bilan farqlangan buqachalarning tana o'lchamlari ham bir xil bo'lmagan va 6 oylikdanoq guruhlararo farq kuzatilgan. Yag'rin balandligi 18 oylik III- guruh hayvonlarida 121,7 sm bo'lib, o'z tengdoshlari va I va II- guruhdan 1,2-5,2 sm yoki 0,9-4,3 foizga ko'pdir. Hayvonlarni jadal o'sishi va go'sht mahsuldorligi bilan bog'liq bo'lgan ko'krak kengligi, chuqurligi hamda aylanasi kabi o'lchamlar bo'yicha ham chatishma hayvonlar sof zotli tengdoshlarini orqada qoldirishgan. Aytaylik ko'krak chuqurligi 6 oylik I- guruh buqachalarida 35,6 sm bo'lsa, bu ko'rsatkich II- guruhda 38,1 sm ni tashkil qilgan, farq 2,5 sm yoki 6,6 foiz, III- guruhda 36,7 sm bo'lib, farq tegishlicha 1,1 sm yoki 3,0 foiz. Bu farq 18 oylik buqachalarda shunga mos ravishda 0,3 va 1,4 sm ni tashkil qilgan.

Tajribadagi buqachalarning asosiy tana o'lchamlari, sm ($\bar{X} \pm S_x$)

O'lchamlar nomi	Guruhlar								
	I			II			III		
	Yoshi oy hisobida								
	6 oy	12 oy	18 oy	6 oy	12 oy	18 oy	6 oy	12 oy	18 oy
Yag'rin balandligi	87,5±1,94	110,6± 1,40	116,5±1,69	89,9± 1,24	109,9±1,78	120,5±1,60	90,8±0,53	111,5±1,34	21,7±1,46
Orqa balandligi	88,7±1,20	108,7±1,81	115,0±1,64	85,6±2,18	108,7±1,39	118,5±1,51	90,3±0,59	110,2±1,15	17,7±1,07
Bel balandligi	84,9±2,16	108,0±1,50	115,6±1,70	87,4± 1,23	109,4±1,72	116,9±1,41	91,1±1,34	110,5±1,31	18,8±1,43
Dumg'aza balandligi	88,8±1,94	112,9±1,41	115,6±1,70	91,4±1,25	112,7±1,52	121,4± 1,34	92,3±0,62	113,4±1,56	20,5±0,76
O'tirgich do'ngliklarining balandligi	82,9±2,11	108,2±1,22	112,6±1,65	84,6±0,82	109,0±1,74	117,1±1,53	89,1 ±0,72	109,7±1,22	118,4±1,86
Ko'krak chuqurligi	35,6±1,04	59,6±1,31	64,7± 1,33	38,1±0,62	59,7±0,82	64,4±0,76	36J±0,63	61,8±1,38	66,1±1,52
Ko'krak kengligi	23,0± 13	33,2±0,94	41,8±1,32	22,4±0,84	35,6±1,05	42,1±1,10	24,4±0,55	36,0±0,99	44,1±1,02
Yonbosh cho'qqilari orasidagi kenglik	20,9±0,87	28,0±0,77	36,6±0,89	21,5±0,83	33,6±0,62	38,5±0,82	20,7±0,20	34,3±0,65	40,0±0,78
O'tirg'ich do'ngliklari kengligi	15,7±0,84	26,2±0,91	30,1±1,04	14,8±0,46	24,8±0,85	29,9±0,48	14,9±0,16	26,2±0,59	29,5±0,72
Gavda qiya uzunligi	85,0±1,69	116,0±1,69	127,3±1,71	87,4±0,62	118,5±1,03	126,7±1,17	89,2±1,36	123,4±1,27	128,8^1,30
Orqaning qiya uzunligi	30,8±1,52	40,8±1,27	44,7±1,26	28,9±0,79	39,2±0;67	42,1±0,78	27,4±2,88	40,3±0,63	44,4±0,79
Ko'krak aylanasi	111,1±2,35	159,3±2,14	176,7±1,73	114,8±0,63	159,2±1,66	177,4±1,92	116,6±0,57	162,8±3,45	180,3±1,61
Bilak(pocha)aylanasi	11,6±0,35	15,5±0,30	19,1±0,42	10,6±0,24	13,8±0,35	20,6±0,46	11,9±0,28	15,9±0,31	21,9±0,57
Bosh uzunligi	27,9± 1,08	26,2± 1,29	41,4±1,23	28,8±0,58	35,0±0,88	39,7±0,82	28,6±0,23	36,4±0,64	40,2±0,50
Manglay uzunligi	18,2±0,99	21,0±0,91	25,5±1,03	15,0±0,52	18,3±0,54	21,4±0,65	14,7±0,13	20,3±0,53	22,7±0,66
Manglayning katta kengligi	16,9±0,78	18,5±0,79	24,4±1,04	16,1±0,49	17,9±0,55	20,7±0,57	13,8±0,18	20,7±0,43	22,4±0,36
Manglayning kichik kengligi	15,0±0,68	16,1±0,68	22,0±0,91	14,9±0,39	15,9±0,71	19,1±0,55	12,7±0,18	17,1 ±0,46	21,3±0,50
Bosh chuqurligi	18,4±0,65	22,3±0,88	28,7±1,03	16,8±0,53	22,6±0,63	28,4±0,75	17,2±0,25	23,7±0,54	29,1±0,49
Orqaning yarim aylanasi	70,7±2,11	80,1±1,57	105,7±1,80	65,2±0,95	88,0±1,31	108,9±1,43	69,8±0,63	92,7±0,99	114,4±0,93

Shuni ta'kidlash lozimki barcha guruhdagi hayvonlar tana o'lchamlarini yosh bo'yicha o'zgarishida umumiy qonuniyat kuzatilgan ya'ni kenglik o'lchamlari, balandlik o'lchamlariga nisbatan ancha jadal o'sgan. Xususan bel balandligi barcha hayvonlarda 6 oylikdan 18 oygacha 30,0-35,5 foiz o'sgan bo'lsa, bu ko'rsatkich ko'krak kengligi bo'yicha 80-85 foizga teng.

Xuddi shuningdek gavda qiya uzunligi ko'rsatilgan davrda o'rtacha 45-50 foiz o'sgan, ammo o'tirgich do'ngliklari kengligi bo'yicha o'sish 95-98 foizni tashkil qilgan. Albatta bu ko'rsatkichlar bo'yicha ham ishonarli ravishda guruhlararo farq aniqlangan.

Hayvonlar eksteryeri ularning irsiyatiga bog'liq bo'lib yoshi, semizligiga va tashqi muhit ta'siriga mos ravishda o'zgaradi. Hayvonlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundaki, tananing ayrim qismlari shakllanishi bir me'yorda bo'lmaydi. Embriion davrida tananing ilik suyaklari umurtqa va yassi suyaklariga nisbatan jadal o'sgan.

Tana tuzilish indeksleri bo'yicha ham ishonarli darajada guruhlararo farq aniklangan. Zichlik, massivlik va go'shtdorlik indeksleri bo'yicha III- guruhdagi chatishma hayvonlar, o'z tengdoshlari I- guruhdagi sof zotli va II-guruhdagi chatishma hayvonlarni orqada qoldirgan. Tana hajm o'zgarishi bo'yicha olingan ma'lumotlar U.N. Nosirov (1974, 2001), P.S. Sobirov (1991, 1995), A.Q.Qaxarov va boshqalar (2005), V.I.Selsov (2006), D.S.Adushinov (2006) larning ma'lumotlari bilan mos keladi. Shunday qilib 3 oyligidan 21 oyligigacha jadal usulda boqilgan, har xil genotipli buqachalarning o'sish va rivojlanishi talab darajasiga yaqin bo'lgan va bu ko'rsatkichlar bo'yicha ishonarli me'yorda guruhlararo farq aniqlangan.

B.Toshpo'latov tomonidan (2009) Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani qoramolchilikka ixtisoslashgan «Toshpo'latov Bahodir Jo'raniyozovich» fermer xo'jaligi sharoitida sof zotli qora-ola va bu zot sigirlarini golshtin zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish natijasida olingan turli genotipli yosh golshtinlashgan buqachalarda tajriba o'tkazilgan. Buqachalarning o'sish ko'rsatkichlari, olingan buzoqlarning tug'ilgandagi va 3, 6, 9, 12, 15, 18, 21

oylardagi tirik vazni yakkama-yakka tarozida tortib o'rganilgan. O'sishning 6 va 21 oylarida tajribadagi buqachalarni yelka, bel, orqa, va dumg'aza balandligi, ko'krak chuqurligi va kengligi, maklak suyaklar kengligi, tanananing qiya uzunligi, ko'krak, kaft va orqaning yarim aylanasi kabi tana o'lchamlari olinib, ular asosida tana tuzilish indeksleri hisoblangan va shu tariqa hayvonlarni rivojlanish xususiyatlari baholangan.

Hayvonlarni yoshligidan jadal usulda boqib, mo'l-ko'l to'yimli ozuqalar bilan oziqlantirish ularning tirik vazniga, o'sish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan (3-jadval). 3-jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, tug'ilgandagi tirik vazn bo'yicha sof zotli qora-ola buzoqlari o'z tengqurlari II va III guruhlardagi buzoqlardan 2,3 kg ($r < 0,05$) yoki 7,7 foiz va 2,9 kg ($r < 0,05$) yoki 9,7 foizga orqada qolishgan. Bu holat tajribaning keyingi o'sish davrlarida ham saqlanib qolgan bo'lib, chatishma buqachalar sof zotli tengqurlariga qaraganda birmuncha jadal o'sganligi ko'rsatilgan.

3- jadval

Tajribadagi buqachalar tirik vaznining o'sish sur'ati, kg ($X \pm S_x$)

Yoshi, oylar hisobida	p	Guruhlar		
		I	II	III
Tug'ilganda	15	30,0 $\pm$ 0,3	32,5 $\pm$ 0,5	32,9 $\pm$ 0,4
3	12	73,5 $\pm$ 1,9	78,5 $\pm$ 2,4	80,0 $\pm$ 2,9
6	12	120,0 $\pm$ 2,1	128,6 $\pm$ 1,6	136,5 $\pm$ 4,0
9	9	168,5 $\pm$ 2,8	182,0 $\pm$ 1,8	188,1 $\pm$ 2,9
12	9	237,7 $\pm$ 4,8	257,9 $\pm$ 3,1	265,2 $\pm$ 3,1
15	9	310,3 $\pm$ 3,4	338,5 $\pm$ 3,0	349,2 $\pm$ 4,1
18	6	390,7 $\pm$ 3,7	427,5 $\pm$ 2,4	440,2 $\pm$ 2,8
21	3	468,3 $\pm$ 4,8	510,1 $\pm$ 5,4	528,4 $\pm$ 3,8

Jumladan rasionga sut qo'shib berish davrining oxirida, ya'ni 6 oylik buzoqlarda tirik vazn shunga mos ravishda 120,0; 128,6; 136,5 kg ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, III guruh buqachalari I va II guruhlardagi tengqurlarga nisbatan mutanosib ravishda 16,5 kg ($r < 0,01$) yoki 14,1 foiz va 7,9 kg ($r < 0,05$) yoki 6,1 foiz

ustunlikka erishgan. O'sishning keyingi davrida, boshqacha qilib ayitganda 6-9 oyliklar mobaynida tirik vazn bo'yicha farq chatishma hayvonlar foydasiga tegishli ravishda 13,5 kg ($r<0,01$) yoki 8,0 foiz va 19,6 kg ($r<0,01$) yoki 10,8 foizga teng bo'lib, oldingi o'sish davridan biroz kamligi bilan xarakterlanadi. Buning sababi bu o'sish davri kuz va qish fasliga to'g'ri kelgan bo'lib rasion tarkibiga kiritilgan yem-xashakning to'yimlilik darajasi pastroq bo'lgan, ayniqsa xazmlanuvchi protein miqdori kam bo'lgan. Bir yoshli buqachalarning genetik kelib chiqishidan qat'iy naza, o'sish barcha guruhlarda yuqori bo'lgan. Lekin bu davrda ham golshtinlashtirilgan II va III guruh buqachalari, I –guruhdan mos ravishda 20,2 ($r<0,01$) yoki 8,5 foiz va 27,5 kg ($r<0,01$) yoki 11,6 foiz yuqori ko'rsatkichga erishishgan. Umuman olganda tajribaning shu oylaridan boshlab o'sish jadallashgan. Guruhlararo farq o'sishning 15-18 oylarida ham yuqori bo'lgan. Xususan golshtin bo'yicha qon ulushi 75% ni tashkil etgan III guruhdagi chatishma buqachalar bu davrlarda I va II guruhlardagi tegqurlaridan tegishli ravishda 38,9 kg ($r<0,01$) yoki 12,5 foiz, 10,7 kg ($r<0,01$) yoki 3,2 foizga ustun bo'lishgan.

Tajriba yakunida ya'ni 21 oylik buqachalarning tirik vaznini solishtirganda eng yuqori ko'rsatkich III guruhdagi buqachalarda bo'lib 528,4 kg ni tashkil etgan. Bu esa, o'z tengqurlari I guruhdagi buqachalardan 60,1 kg ($r<0,01$) yoki 12,5 foiz va II guruhdagilardan esa 18,3 kg ($r<0,05$) yoki 3,6 foiz ko'p demakdir. I va II guruhlardagi buqachalarning tirik vazn bo'yicha farqi ikkinchisi foydasiga 41,8 kg ($r<0,01$) yoki 8,9 foizga tengdir. Ya'ni ular bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinda bo'lishgan.

Shunday qilib, o'sishning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ishonchli darajada guruhlararo tafovvt aniqlangan. Bunda goshtinlashtirish bo'yicha qon ulushi 75,0% bo'lgan III guruh buqachalari sof zotli va qon ulushi 50% bo'lgan chatishma buqachalardan iborat I va II guruhlardan ustunlik qilib jadal va durkun o'sganligini namoyish qilgan.

Turli genotipga mansub buqachalarni o'sish, rivojlanganlik va tana tuzilishi darajasini baholashda ularning tana tuzilish indekslarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tajribadagi buqachalar tanasining mutanosib rivojlanganligini baholashda tana o'lchamlari asosida hisoblab chiqilgan tana indekslari alohida ahamiyat kasb etadi. 4 -jadvalda tajribadagi hayvonlarni 6 va 21 oyligidagi tana o'lchamlari asosida hisoblangan tana tuzilish indekslari keltirilgan.

4-jadval

Tajribadagi buqachalarning tana tuzilish indekslari, %

Indekslar	Guruhlar					
	I		II		III	
	6 oylikda	21 oylikda	6 oylikda	21 oylikda	6 oylikda	21 oylikda
Uzunoyoqlilik	59,2	43,8	57,9	43,8	58,0	43,6
Cho'zinchoqlik (format)	96,5	118,5	97,1	117,9	98,5	117,5
Ko'krakdorlik	65,3	66,6	67,5	68,9	69,5	70,0
Tos-ko'krak	146,6	94,4	156,6	97,0	160,2	96,7
Zichlik (kompakt)	125,2	157,9	124,8	158,2	128,7	159,4
Suyakdorlik	13,2	15,2	13,1	15,5	13,9	15,6

Bunda rivojlanishning umumiy qonuniyatiga binoan barcha guruhlarda cho'zinchoqlik, zichlik, va suyakdorlik indekslari yosh ortishi bilan oshgan bo'lsa, tos-ko'krak va uzunoyoqlilik indekslari aksincha kamaygan. Lekin barcha tana tuzilish indekslari bo'yicha ham guruhlararo farq kuzatilgan. Ayniqsa ko'krak, tos-ko'krak, zichlik va suyakdorlik kabi go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan indekslar, III guruh hayvonlarida o'z tengqurlari I va II guruhlardagi buqachalarga qaraganda ancha yuqori bo'lgan, bu esa, ularni mutanosib tana tuzilishga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar yoshidan qat'iy nazar har xil genotipli golshtinlashtirilgan buqachalar, qora-ola zotli tengqurlariga nisbatan tirik vazn va

go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq ko'rsatkich hisoblangan yaxshi va mutanosib rivojlangan tana tuzilishga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

M.Axtamova va boshqalar (2009) yillar davomida mamlakatimizning janubiy hududi Surxondaryo viloyatining Qumqurg'on tuman «Chorvador» fermer xo'jaligi sharoitida yosh golshtinlashgan buqachalarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganadi. Tajriba uchun sof qora-ola zotli 1-guruh, $\frac{1}{2}$ qora-ola x $\frac{1}{2}$ golshtin 2-guruh va $\frac{3}{4}$ qora-ola x $\frac{3}{4}$ golshtin zotlarini tanlaydi. Buqachalarning o'sish ko'rsatkichlari, olingan buzoqlarning 6, 9, 12, 15, 18, 21 oylardagi tirik vazni yakkama-yakka tarozida tortib o'rganadi. O'sishning 3 va 21 oylarida tajribadagi buqachalarni yelka, bel, orqa, va dumg'aza balandligi, ko'krak orti, ko'krak chuqurligi va kengligi, maklok suyaklar kengligi, tanananing qiya uzunligi, ko'krak, kaft va orqaning yarim aylanasi kabi tana o'lchamlari olinib, ular asosida tana tuzilish indeksleri hisoblanadi va shu tariqa hayvonlarni rivojlanish xususiyatlari baholandi.

Hayvon o'sish va rivojlanishi, zigota hosil bo'lgan paytdan boshlanib, organizmining butun hayoti davomida irsiy omillar hamda tashqi muhit ta'sirida kechadi. jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, tajriba 6 oyligida tirik vazn bo'yicha sof zotli qora-ola buzoqlari o'z tengqurlari II va III guruhlardagi kam ko'rsatkichga erishgan bu holat tajribaning keyingi o'sish davrlarida ham saqlanib qolgan bo'lib, chatishma buqachalar sof zotli tengqurlariga qaraganda birmuncha jadal o'sishgan. Aytaylik 6 oylik buzoqlarda tirik vazn shunga mos ravishda 110,0; 118,6; 126,5 kg ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki III guruh buqachalari I va II guruhlardagi buzoqlarga nisbatan mutanosib ravishda 16,5 kg ($r < 0,01$) yoki 15,1 foiz va 7,9 kg ($r < 0,05$) yoki 6,7 foiz ustunlikka erishgan. O'sishning keyingi davrida, boshqacha qilib ayitganda 6-9 oyliklar mobaynida tirik vazn bo'yicha farq chatishma hayvonlar foydasiga tegishli ravishda 13,5 kg ($r < 0,01$) yoki 7,6 foiz va 19,6 kg ($r < 0,01$) yoki 10,8 foizga teng bo'lib, odingi o'sish davridan biroz kamligi bilan xarakterlanadi.

Tajribadagi buqachalar tirik vaznining o'sish sur'ati, kg ($X \pm S_x$)

Yoshi, oylar	p	Guruhlar		
		I	II	III
6	9	110,0 $\pm$ 4,1	118,6 $\pm$ 4,6	126,5 $\pm$ 4,6
9	9	158,5 $\pm$ 4,8	172,0 $\pm$ 2,8	178,1 $\pm$ 3,9
12	9	227,7 $\pm$ 4,8	247,9 $\pm$ 3,7	255,2 $\pm$ 4,1
15	9	309,3 $\pm$ 5,4	328,5 $\pm$ 3,6	339,2 $\pm$ 5,1
18	6	380,7 $\pm$ 4,7	417,5 $\pm$ 3,4	430,2 $\pm$ 2,0
21	3	458,3 $\pm$ 6,8	490,0 $\pm$ 5,6	518,4 $\pm$ 3,8

Buning sababi bu o'sish davri kuz va qish fasliga to'g'ri kelgan bo'lib rasion tarkibiga kiritilgan yem-xashakning to'yimlilik darajasi pastroq bo'lgan, ayniqsa xazmlanuvchi protein miqdori kam bo'lgan. Bir yoshli buqachalarning genetik kelib chiqishidan qat'iy nazar o'sish barcha guruhlarda yuqori bo'lgan. Lekin bu davrda ham golshtinlashtirilgan II va III guruh buqachalari I guruhdan mos ravishda 20,2 ($r < 0,01$) yoki 8,5 foiz va 27,5 kg ($r < 0,01$) yoki 11,6 foiz yuqori ko'rsatkichga erishishgan.

Umuman olganda tajribaning shu oylaridan boshlab o'sish jadallashgan. Guruhlararo farq o'sishning 15-18 oylarida ham yuqori bo'lgan. Xususan golshtin bo'yicha qon ulushi 75% ni tashkil etgan III guruhdagi chatishma buqachalar bu davrlarda I va II guruhlardagi tegqurlaridan tegishli ravishda 38,9 kg ($r < 0,01$) yoki 12,5 foiz, 10,7 kg ($r < 0,01$) yoki 3,2 foizga ustun bo'lishgan.

Tahlil qilinayotgan jadvallardan shunday xulosa qilish mumkinki barcha guruhlardagi hayvonlarni o'sishi yosh oshishi bilan oshib borgan, lekin uning jadalligi aynan 13 oyligidan boshlangan.

Tajribadagi buqachalarda bu holat 18 oylikkacha davom etib keyingi o'sish davrida biroz sekinlashgan. Yakuniy so'qimlanish oxirida o'sish biroz sekinlashadi degan fikrni professor D.L.Levantin (1969-2000) va U.N.Nosirovlar (1974, 2001, 2003, 2008) ta'kidlashgan.

Shunday qilib, o'sishning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ishonchli darajada guruhlararo tafovut aniqlangan. Bunda goshtinlashtirish bo'yicha qon ulushi 75,0% bo'lgan III guruh buqachalari sof zotli va qon ulushi 50% bo'lgan chatishma buqachalardan iborat I va II guruhdan ustunlik qilib jadal va durkun o'sishgan. Olingan natijalar Sh.A.Akmalxonov va boshqalar (1993, 2007), M.E.Ashirov (1994), P.S.Sobirov (1995), B.Salibayev (1995), U.N.Nosirov (2003), A.A.Xushvaqto'vlar (2007) ma'lumotlari bilan mosdir.

M.Narbayeva tomonidan 2008-2011 yillar davomida Surxondaryo viloyatida, kelib chiqishi, yoshi, jinsi, tirik vazni hisobga olingan holda, 3 oylik golshtin, qora-ola zotli va ularning birinchi bo'g'in avlodlariga mansub bo'lgan urg'ochi va erkak buzoqlarda tajriba ishlari olib borilgan. Tajribadagi hayvonlar zot, zotdorligi va jinsiga qarab har xil tirik vaznga ega bo'lishdi. Har xil o'sish davrida VI- guruhdagi birinchi bo'g'in duragay buqachalari o'zining tengqurlaridan o'sish tezligi va tirik vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan (6-jadval).

6-jadval

Tajribadagi hayvonlarni tirik vaznining o'sish dinamikasi, kg p=10

Yoshi, oylar hisobida	Guruhlar					
	I	II	III	IV	V	VI
3	75,1± 0,36	80,9± 0,39	82,6± 0,33	78,5± 0,33	86,6± 0,31	88,2± 0,25
6	118,5± 0,39	130,6± 0,45	136,1± 0,41	127,7± 0,28	140,5± 0,62	144,0± 0,40
9	164,6± 0,53	180,8± 0,84	185,3± 0,59	184,1± 0,87	194,8± 0,66	196,8± 0,70
12	210,8± 0,76	230,3± 0,56	242,7± 0,86	244,7± 0,83	255,2± 0,56	260,5± 0,66
15	272,0± 0,86	292,5± 0,76	307,4± 0,73	310,2± 0,60	324,5± 0,66	334,0± 0,70
18	348,4± 0,76	363,3± 0,80	380,9± 0,56	385,8± 0,53	402,2± 0,73	415,5± 0,63
21 (p=5)	421,8± 0,86	438,3± 0,83	459,4± 0,63	465,9± 0,35	485,7± 0,50	501,8± 1,0

Xususan 21 oyligida ularning tirik vazni 5,5 martadan ko'proq oshib, 501,8 kg ni tashkil qildi, bu esa, o'z tengqurlari I, II, III, IV, V guruhlardagi hayvonlarga nisbatan tegishli: 80, kg, 63,5 kg, 42,4 kg, 35,9 kg va 16,1 kg ko'p bo'lgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, bir kunlik, mutloq, nisbiy va o'sish koeffitsiyenti, shuningdek tana o'lchamlari va tana indeksleri bo'yicha guruhlararo farq aniqlangan. Bunda III va VI- guruhlardagi duragay hayvonlar o'z tengqurlari sof zotli I, II, IV, V guruhlardagi hayvonlarga nisbatan ijobiy ko'rsatkichlarga erishgan.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

Biz bugun 2013 yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi.

Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga

tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profisit bilan bajarildi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda.

So'nggi yillarda eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2013 yilda umumiy eksport hajmining 72 foizdan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri kelgani iqtisodiyotimiz diversifikasiya qilinayotganining yaqqol dalolati, desam, xato bo'lmaydi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarning amalga oshirilgani eksport faoliyatiga 450 dan ziyod yangi korxonani jalb etish imkonini berdi. Bu borada Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida barcha hududlarda o'z filiallariga ega bo'lgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tashkil etilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu jamg'armaning asosiy vazifasi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jamg'armaning o'tgan qisqa davrdagi faoliyati davomida 153 ta tadbirkorlik subyektiga umumiy qiymati 56 million dollardan ziyod bo'lgan eksport shartnomalarini tuzishda yordam ko'rsatildi.

2013 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish

tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1 marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2 marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013 yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz.

Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir.

2008 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

2013-2017 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qildik.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi tobora katta rol o'ynamoqda. Biz o'tgan yilning boshida 2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini tasdiqladik. 2013 yilda xizmat ko'rsatish bo'yicha 13 mingdan ortiq korxona, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug'urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etildi.

2013 yil yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000 yildagi 37 foizdan 53 foizga o'sdi.

2013 yilda Investisiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investisiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Jalb etilayotgan investisiyalarning asosiy qismi – 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish obyektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflangan investisiyalar ulushi esa qariyb 40 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investisiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi.

O'zlashtirilgan umumiy kapital qo'yilmalar hajmining 3 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investisiyalar tashkil etdi. Shuning 72 foizdan ziyodi yoki 2 milliard 200 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalardir.

Ma'lumki, biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta maqsadlar qo'yganmiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalarini tashkil etish yo'lida oxirgi yillarda biz ko'pgina tajribalarga ega bo'lmoqdamiz.

So'nggi yillarda jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil o'sib bormoqda, ayni vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlarni xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf-xarajatlar miqdori ham sezilarli ravishda ko'paymoqda. Misol uchun, mustaqillik yillarida go'sht iste'moli – 1,4 marta, sut – 1,3 barobar, sabzavot va poliz mahsulotlari – 2,6 marta, kartoshka – 2 barobar, mevalar iste'moli – 6,4 karra oshdi.

Iqtisodiyotimizning 2014 yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaningyuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

Yalpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko'paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshgan.

3.5. Ishning iqtisodiy samaradorligi

Chorvachilik, shu jumladan qoramolchilik bo'yicha bajarilgan har qanday izlanish va tadqiqotlar iqtisodiy jixatdan asoslanishi lozim. Chunki iqtisodiy samaradorligi bo'lmagan tadqiqotlarning o'tkazilishining o'zi har tomonlama maqsadsiz xisoblanadi. Shuning uchun qanday ekalogik iqlim sharoitida yoki toifasidan qat'iy nazar tajriba o'tkazilgan xo'jaliklarda ishning iqtisodiy ko'rsatkichlari xisoblanadi va shu ko'rsatkichga qarab taxlil qilinadi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, hayvonlarni iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Jumladan, hayvonlarni turi, zoti, zotdorligi, jinsi, yoshi, boqishi va oziqlantirish sharoiti va boshqalar hayvonlardan mahsulot olish iqtisodiy ko'rsatkichlarini ijobiy yoki salbiy bo'lishiga aloqadordir.

Hayvonlarni, jumladan qoramollarni iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblashda bevosita va bilvosita xarajatlar hisoblanadi. Bevosita xarajatlarga oziqa xarajati va cho'pon – cho'liqlarga, mutaxassislarga ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar kirsa, bilvosita xarajatlarga chorvachilik binosi va chorvachilik jarayonlariga qo'llaniladigan mexanizm, uskuna, avto - ulovlar amartizasiyasi, yoqilg'i va zooveterinariya tadbirlariga qilingan xarajatlar kiradi.

Ko'pgina o'tkazilgan tajribalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarning natijalari shundan dalolat berganki, jami xarajatni 65-70 foizini oziqa xarajati va qolgan 30-35 foizini boshqa xarajatlar tashkil qilgan. Ana shu qilingan xarajatlarga qarab mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Qanchalik kam oziqa va mehnat (odam / soat) sarflangan bo'lsa, shunchalik maxsulot tannarxi kamayadi. Bunga mahsulot ishlab chiqarish va mahsulotni qayta ishlash jarayonlarini mexanizasiyalashtirilganligi va avtomatlashtirilganligi ta'sir etadi. Bitiruv malakaviy ishining IV – bo'limida taxlil qilingan ilmiy – tadqiqot ishlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan:

A.Xushvaktov Zarafshon vohasi sharoitida qora – ola va shu zotning sigirlarini golshtin buqachalari bilan chatishtirish natijasida olingan golshtinlashgan buqachalarning go'sht mahsuldorligini o'rganib, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini quyidagicha talqin qilgan; 1 s tirik vaznning tannarxi guruhlarda 18 va 21 oylikda tegishli: 142,3, 149,0, 131,0 va 136,8, 129,9, 136,0 ming so'm. Olingan sof foyda 133,0, 179,9, 184,3 va 225,5, 194,2 236,0 ming so'm, hamda iqtisodiy samaradorlik ya'ni rentabellik darajasini 30,0, 31,3, 41,2 va 38,9, 42,4 39,8 foiz bo'lganligini ta'kidlagan.

B.Toshpo'latov tashkil qilgan ilmiy ishlab chiqarish tajribasida bir bosh hayvonni sotishdan olingan jami daromad bo'yicha I-II, I-III va II-III guruhlar orasidagi farq oxirgilari foydasiga mutanosib tarzda 13,5 (3,3%), 23,8 (5,7%) va 10,3 (2,4%) ming so'mni tashkil etgan. Olingan sof foyda III guruh hayvonlarida eng ko'p bo'lib, 100,0 ming so'mni tashkil qilgan. Yoki ular o'z tengqurlari I guruhdan 17,5 (2,1%) va II guruhdan esa 7,5 (1,0%) ming so'm ko'p foyda bergan. Bu ko'rsatkich bo'yicha II-III guruhlarining farqi, oxirgisi foydasiga 10,0 (1,2%) ming so'mga teng bo'lgan. Tajribaning rentabellik darajasi shunga mos ravishda guruhlarda 24,2; 26,9; 28,9 foizni tashkil qilgan.

Tajribaning iqtisodiy samaradorligi guruhlarda mos ravishda 28,2; 31,5; 20,3 foizni tashkil qilgan. Boshqacha qilib aytganda tajriba uchun qilingan har bir so'm, tajriba oxirida tegishli 1,28; 1,32; 1,20 so'm bo'lib qaytgan.

Shunday qilib, olingan natijalarning taxlili 140 kunlik yakuniy bo'rdoqilanish davrida, rasionda omuxta-yem ko'paytirib berilgan I-B, II-B, III-B guruhlardagi buqachalar yuqori darajada zootexnikaviy va iqtisodiy samaradorlikka erishganligini ko'rsatgan.

M.Axtamovanning mamlakatimizning janubiy hududi Surxondaryo viloyatining Qumqurg'on tuman «Chorvador» fermer xo'jaligi sharoitida yosh golshtinlashgan buqachalarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish borasida olib borgan tajribasida iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagicha tahlil qilingan.

Tajriba davomida III guruh hayvonlariga qilingan harajat o'z tengqurlariga nisbatan tegishli 28,3 ming so'm (2,3%) va 21,1 ming so'm (1,9%) ko'p bo'lgan. Qilingan jami xarajatni o'rtacha 70,0 foizini oziqa xarajati tashkil qilgan. Va bu ko'rsatkich bo'yicha farq mos ravishda 19,8 ming so'mni (2,3%) va 14,8 ming so'mni (2,0 %) tashkil etgan. 1 s tirik vaznni tannarxi aksincha III guruh hayvonlarida I va II guruhdagi tengqurlariga qaraganda tegishli 27,6 ming so'm yoki 9,7 % va 10,1 ming so'm yoki 3,4 % kam bo'lgan. 1 bosh hayvonni sotishdan olingan daromad I guruhdagi hayvonlarda 1392,2 ming so'mga teng bo'lib, o'z tengqurlari II dan 92,4 ming so'm yoki 6,6 % va III dan 174,4 ming so'm yoki 12,6% orqada qolishgan.

Olingan sof foyda bo'yicha farq III guruhdagi buqachalar foydasiga shunga mos ravishda 146,6 ming so'm yoki 48,3% va 60,9 ming so'm yoki 15,6 ni tashkil qilgan. Tajribaning rentabellik darajasi guruhlarda tegishli 27,8; 35,5 va 40,3% bo'lgan. Demak tajriba uchun sarflangan har bir so'm, xo'jalikda mos ravishda 1,28; 1,36 va 1,40 so'm bo'lib qaytgan.

M.Narbayeva tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot tajribasida II guruh hayvonlarini mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi daromadi va sof foyda, o'z tengqurlari I va II guruhga nisbatan shunga mos ravishda 78,7 (13,8%) va 46,7 (7,8%) hamda 71,8 (39,7%) va 49,7 (24,5) ming so'm ko'p bo'ldi.

Olingan natijalar, barcha guruhdagi buqachalarni parvarishlash va bo'rdoqilashni yuqori iqtisodiy samara bergaligini ko'rsatgan. Shuning bilan bir qatorda, VI guruhdagi buqachalardan olingan sof foyda 18 va 21 oyligida 447,4 va 549,5 ming so'mni tashkil qilib, o'z tengqurlari IV va V guruhlardagi hayvonlarini tegishli: 81,0 (22,1%), 102,7 (23,0%), 43,9 (10,8) va 54,1 (10,9

%) ming so'mga orqada qoldirgan. Rentabellik 38,4; 42,3; 46,6 va 21 oyligida 38,8; 40,6; 44,7 foizni tashkil qilgan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha golshtinlashgan har xil genotipli buqachalarni qora-ola zotli yosh mollarni o'sish va rivojlanishi boshqa zotlarga nisbatan nafaqat zootexnikaviy balki iqtisodiy jihatdan ham samarali ekan.

IV. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

Har bir asrning insoniyat oldiga kundalang buladigan muammolari mavjud. XXI asrning eng katta muammolaridan biri bu ekologik muammo hisoblanadi. Ana shu muammoni ijobiy yechimi ko'p jihatdan veterinariya xizmatini tashkil qilish samarsiga bevosita bog'liqdir. Demak ekologik holatni yaxshilash borasida veterinariya vrachi nimalarga e'tibor berishi lozim.

- chorvachilik binolarini va inshootlarini zoogigiyenik me'yor asosida qurishga e'tibor berish;

- mahsulotni ekologik sifatini ta'minlash maqsadida reja asosida vetekspertizadan o'tkazish, ya'ni kirib keladigan va aksincha tashkariga chiqadigan chorva mahsulotlarini har tomonlama tekshirish;

- chegara xududlarida veterinariya xizmatini talab darajasida tashkil qilish;

- eksport kilinadigan davlatda tug'ilgan va o'stirilgan, 5 oylikkacha bug'oz bo'lgan, brusellyoz, yashur, leptozpirozga qarshi vaksinasiya kilinmagan, «xalqaro veterinariya talabi» (XVT) ga muvofiq ko'rsatilgan yuqumli kasalliklardan xoli xo'jalik va ma'muriy xududlarda boqilgan sog'lom, nasldor mollarni respublikaga olib kelishiga ruxsat berish;

- yirik chorvachilik korxonalari va fermalarini chiqindilarini oqar suvlarga, aholii yashaydigan punktlar yakini chiqarishga yo'l qo'ymaslik;

- yukumli kasalliklarni oldini olish, kasallangan hayvonlarni poda tarkibidan izolyasiya qilish;

- O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan biopreparatlar, dori-darmonlar, oziqa qo'shimchalari, mikroelementlar, biologik kuchaytirgichlar va garmonlarni chorvachilikda qo'llashga ruxsat bermaslik.

Chorvachilik sohasida faoliyat kursatayotgan mutaxassislar, ishchi xodimlar mexnat muxofazasi va texnika xavfsizligiga ham e'tibor berishi lozim bunda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- chorvachilik binolari va inshootlarida joylashtirilgan mexanizm va asbob uskunaaradan foydalanishda texnika xavfsizligiga rioya qilish;
- elektr energiyasi va yongin xavfsizligi qonun –koidalariga rioya qilish;
- zaharli ximikatlar,o'g'itlar, veterinariya preparatlari saklanadigan omborlarga shaxsiy ximoyalanish vositalarisiz kirmaslik;
- kasal hayvonlar bilan ishlaganda ularni boshqa hayvonlarga yuqtirmaslik va o'ziga yuqtirmalik chora –tadbirlarini ko'rish;
- hayvonlarni bir manzildan ikinchi manzilga tashish vaktida transport vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- barcha fermalar va chorvachilik inshootlarini atrofni devor bilan o'rab obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish va kirish joyda veterinariya- sanitariya qoidalari asoida to'siqlar o'rnatish;
- hayvonlarga beriladigan yem-xashakni zararsizligini tekshirish maqsadida agrokimyoviy laboratoriyalarda analiz qildirish;
- hayvonlarni ko'rgazma va namoyishga olib chiqqanda ulardan muxofazalanishsh yulini bilish;
- hayvonlarni turiga qarab veterinariya chora-tadbirlarin o'z vaqtida o'tkazish.
- ishchi xodimlarni ishga qabul qilayotganda rejali ravishda yul- yo'riqdan o'tkazish. Ularni mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha ogoxlantirish. Ishlab chiqarish yilida mehnat muxofazasi uchun mablag' ajratish.

Xulosalar

Olingan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-golshtin zoti bo'yicha xulosa qilib aytganda, bunday zotli mollarni tanlash va saralash, ularning yirik tana tuzilishligiga va sut mahsuldorligiga e'tibor berish asosida golshtino-friz yoki golshtin nomi bilan atalmish qoramol zoti yaratilgan va ular o'z sut mahsuldorligi bo'yicha qora-ola zotli mollar ichida tan olingan hamda boshqa davlatlarga yaxshilovchi zot sifatida ko'plab tarqatilgan. Golshtin zoti qora-ola zoti uchun «yaxshilovchi» hisoblanadi. Chunki bu zot dunyoda genetik salohiyati eng yuqori zot bo'lib, chatishtirish jarayonida bu zotning buqalari avlodlariga yaxshi darajada o'z irsiy belgilarini o'tkazish qobiliyatiga ega.

-Respublikamiz chorvachiligida bugungi kunda urchitish uchun rejalashtirilgan 10 ga yaqin qoramol zotlari orasida o'zining bosh soni va sigirlarining sut mahsuldorligi jihatidan qora-ola zoti birinchi o'rinda turadi. Ammo bu zot o'zining ayrim xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishga muhtoj. Bu zootexnikaviy tadbir sof zotli urchitish bilan barcha qora-ola zotli sigirlarni chatishtirishda jahon genofondiga xos qora-ola tusli golshtin zotli buqalardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq

-Respublikamiz sharoitida o'sish va rivojlanish va go'sht mahsuldorligi, uni sifati bo'yicha sof zotlilarga nisbatan golshtinlashtirilgan buqachalarning hamda sut mahsuldorligi uni sifati bo'yicha qora-ola va golshtin zotlarini o'zaro chattishtirish natijasida olingan chatishma avlodlar ustunligi kuzatilgan.

Ishlab chiqarishga beriladigan taklif va amaliy tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ishining tahlil qilingan ma'lumotlariga asoslanib ishlab chiqarishga quyidagi amaliy taklifni beramiz:

Respublikamiz sharoitida yuqori mahsuldor podalar yaratish va qora-ola zotli sigirlarni genofondini yanada takomillashtirish maqsadida, zot uchun yaxshilovchi bo'lgan dunyo genofondiga xos golshtin zotidan samarali foydalanish taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Veterinariya to'g'risida" gi Davlat qonuni. Toshkent., 1993. 3 setyabr.
2. "Naslchilik to'g'risida" gi Davlat qonuni. Toshkent 1995., 21 dekabr.
3. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ-308 sonli qarori.
4. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil, 21 martdagi PQ-842 sonli qarori.
5. Karimov I.A. "2013 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Zarafshon , 22.01.2013.
6. Abdalniyazov B.A. Jivotnovodstvo Xorezma. Научные и практические основы улучшения племенных и продуктивных качеств красной степной породы крупного рогатого скота: Автореф. diss. ... докт. с-х. наук. –Tashkent: 1999. 51 s.
7. Abdurashitov A.A. Myasnaya produktivnost i kachestvo kojevennogo сыра крупного рогатого скота в условиях орошаемой зоны Узбекистана: Автореф. diss. ... докт. с-х. наук. – Tashkent: 1985. 59 s.
8. Adushinov D.S., Ustimov Ye.M. Myasnaya produktivnost cherno-pestrogolshtinskogo molodnyaka J. «Zootexniya». – 2002. - №4. 21-22 s.
9. Akmalxanov Sh.A. Biologicheskiye i zootexnicheskiye osnovy vedeniya molochnogo skotovodstva v Uzbekistane. T. «Mexnat», 1993. 271 s.

10. Amerxanov X. Proizvodstvo govyadini: sostoyaniye, tendensii i perspektivy razvitiya. J. «Molochnoye i myasnoye skotovodstvo». 2004. №3. 2-6 s.
11. Antal L. Razmyshleniya na temu: «Бык - polovina stada» J. «Molochnoye i myasnoye skotovodstvo» 2004, №1.16-20 s.
12. Ashirov M.I. Nauchnyye osnovy i prakticheskiye priomy sovershenstvovaniya plemennykh i produktivnykh kachestv cherno-pestrogo skota v usloviyax jarkogo klimata: Avtoref. diss. ... dokt. s.-x. nauk.- Tashkent, 1994. 48 s.
13. Axtamova M. va boshqalar. Golshtinlashgan har xil genotipli buqachalarning go'sht mahsuldorligi. Diss. Mag. Diss. Samarqand. 2009 yil. 75. s.
14. Bagriy B.A. Proizvodstvo kachestvennoy govyadini J. «Zootexniya».- 2001.-№2. s. 23-26.
15. Balash A. Soderjaniye, kormleniye i vajneyshiye veterinarnyye voprosy pri razvedenii golshtino-frizskoy porody skota: M. 1994. 238 s.
16. Bich A.I. Seleksionnaya rabota s molochno-myasnym skotom J. «Zootexniya». 2002. - №6. s. 5-6.
17. Boratov M.O. Myasnaya produktivnost pomesnykh bychkov cherno-pestroy i golshtino-frizskoy porod. V kn.: Myasnoye skotovodstvo i texnologiya proizvodstva govyadini.- Tashkent, 1981. s. 26-29.
18. Burdin Yu., Gerasimenko L. Effektivnost skreщivaniya cherno-pestryx korov Sibiri s bykami golshtino-frizskoy porody J. Molochnoye i myasnoye skotovodstvo».- 1986.- №6. s. 29-30
19. Getokov O., Ushakov M., Dolgiyeva Z. Uluchsheniye otkormochnykh kachestv bychkov pri skreщivanii. J. «Molochnoye i myasnoye skotovodstvo»,- 2004.- №1. s. 5-7.
20. Gorlov I.F., Sivkov A.I., Randelin A.V. Xozyaystvenno-poleznyye priznaki cherno-pestrogo skota povoljskogo tipa v zavisimosti ot genotipa. J. «Zootexniya».- 2005.- №11. s. 23-27.

21. Djaparidze T.G., Milyukov A.K. Budet li effekt ot ispolzovaniya golshtinov. J. «Molochnoye i myasnoye skotovodstvo», – 1992. №2. s. 2-3.
22. Dunin I.M., Isayev V.A., Loginov J.G., Dankvert S.A. Genealogiya golshtinskogo skota cherno-pestroy masti. M. 1999,. 502 s.
23. Zaxarov V.A., Trufanov V.G. Effektivnost golshtinskix бычков s korovami xolmogorskoy i cherno-pestroy porod J. «Zootexniya», 2004.-№3. s. 25-26.
24. Ivanov V.M. Myasnaya produktivnost бычков krasnoy stepnoy porodы i yeyo pomesey s krasno-pestrymi golshtino-frizami pri intensivnom vyrazhivaniy v usloviyax promyshlennoy tekhnologii. Avtoref. diss.kand. s.-x. nauk. Krasnodar. 1989. 20 s.
25. Kaxarov A. Effektivnost ispolzovaniya porod krupnogo rogatogo skota raznogo napravleniya produktivnosti i ix pomesey dlya proizvodstva govyadinы v usloviyax Yuga Uzbekistana: Avtoref. Diss. dokt. s.-x. nauk. Tashkent, 1994. 50 s.
26. Kaxarov A.K., Avazov D. Qoramol go'shti ishlab chiqarishni ko'paytirishga zotlararo chatishtirishning o'rni : Sam QXI «Qishloq xo'jalik hayvonlari seleksiyasi va mahsuldorligini yanada yaxshilash muammolari» ilmiy to'plami.- Samarqand. 2004.- 87-89 b.
- 27.Kaxarov A.K., Avazov D. Har xil genotipli buqachalar. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jo'rnali – 2005.-№5. 22 b.
28. Kalashnikov A.P., Rogalskiy G.L. Skremchivaniye s goshtino-frizami - effektivnyy metod povыsheniya produktivnosti cherno-pestrogo skota v Sibiri. Materialы. Nauch. Proizvod. konf. «Ispolzovaniye golshtinskoy porodы dlya intensivifikatsii seleksii molochnogo skota» Gosagroprom Ukrainы. otdeleniye VASXNIL. Kiyev, 1987, s. 19-21
29. Kalashnikov V., Amerxanov X. Sostoyaniye i perspektivy proizvodstva govyadinы v Rossii. J. «Molochnoye i myasnoye skotovodstvo». 2005, №6, s. 3-7.
30. Karakulov A.B. Sravnitel'naya osenka rosta, razvitiya i myasnoy produktivnosti jivotnyx cherno-pestroy porodы i yeyo golshtinizirovannyx pomesey pri vyrazhivaniy ix do vysokoy jivoy massы.- V kn.: Resursnoye

obespecheniye proizvodstva govyadinы v Tadjikistane.- Dushanbe. «Irfon», 1996. s. 215-250.

31. Karchevskiy E.Yu. Teoriya i praktika razvedeniya cherno-pestrogo skota v Uzbekistane.- Tashkent:. «Fan», 1984. 168 s.

32. Karchevskiy E.Yu. Plan plemennoy raboty s krupnym rogатыm skotom. –T.: «Mexnat», 1985. 150 s.

33. Kuzyakina L.I. Izmeneniye eksteryera i produktivnosti korov cherno-pestroy porody pri golshtinizasii stad J. «Zootexniya». 2005. №12. s. 12-13.

34. Kuleshov P.N. Skorospelost, prirost jivogo vesa i sposobnost k ispolzovaniyu korma u russkogo stepnogo skota. Izbr. Raboty. –M., 1949. s.48-52.

35. Lanina L.S. rost бычков v usloviyax elevera. J. «Zootexniya». 1991. №4. s.51-53.

36. Levantin D.L. Teoriya i praktika povыsheniya myasnoy prooduktivnosti v skotovodstve –M. «Kolos», 1966. 408 s.

37. Levantin D.L. Strukturnыe izmeneniya po ispolzovaniyu porod v skotovodstve J. «Molochnoye i myasnoye skotovodstvo», 2001. №1. s. 2-6.

38. Lyaщuk R.N., Shendakov A.I., Sorokin V.V., Amelin A.Ye. Realizasiya produktivnogo potentsiala golshtinizirivannogo cherno-pestrogo skota J. «Agrarnaya nauka». 2008 №2 s. 21-23.

39.Nosirov T., Usmonov O. «Yordon» ning muvaffaqiyati texnologiya va seleksiya yo’nalishidagi faoliyati bilan bog’liq. «Zooveterinariya» jurnali. 2008 №4. 34-35 b.

40. Nosirov U.N. Metody povыsheniya proizvodstva govyadinы i sozdaniye myasnogo skotovodstva v Uzbekistane: Avtoref. Diss. ... dokt. s.-x. nauk.-Orenburg, 1974. 47 s.

41. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. 383 b.

42. Proxorenko P.N., Zavertyayev B.P. Genetika i seleksiya molochnogo skota. J. «Zootexnniya». 2004. №9. s. 2-6.

43. Proxorenko P., Loginov J. Osenka бычков-производителей - главный вопрос в селекции молочного скота. Ж. «Молоchnoye i myasnoye skotovodstvo». 2005. №5. с. 15-17.

44. Proxorenko P.N. Proshloye, nastoyashcheye i budushcheye genetiki i seleksii v jivotnovodstve. Ж. «Zootexniya», 2008. №1. с. 8-10.

45. Samatov A. Sravnitel'naya osenka myasnoy produktivnosti бычков cherno-pestroy породы i их $\frac{1}{2}$ i $\frac{5}{8}$ golshtinizirovannykh pomesey. Avtoref. Diss. kand. s.-x. nauk. Dushanbe. 2004. 22 s.

46. Sangayev B.E. Sravnitel'nyye rezultaty ispolzovaniya dvux porodnykh pomesey (golshtino-frizskaya x cherno-pestraya) v usloviyax krupnykh promyshlennykh kompleksov: Avtoref. Diss. kand. s.-x. nauk. – Xarkov. 1989. 20 s.

47. Sarapkin V., Baxteyev Yu. Myasnaya produktivnost Srednepovoljskogo cherno-pestrogo skota Ж. «Молоchnoye i myasnoye skotovodstvo». -2006. №1. с. 30-32.

48. Sobirov P.S. Uluchsheniye produktivnykh kachestv cherno-pestrykh i drugix porod s golshtino-frizskoy porodoй v usloviyax зоны jarkogo klimata. TR. TashSXI. Toshkent, 1991 s. 51-55.

49. Sobirov P.S. Golshtino-friz zotini qora-ola zotini yaxshilashdagi o'rni: Sam QXI ilmiy to'plami.- Samarqand, 1995. 65-66 b.

50. Spivak M. Ispolzovaniye быков golshtinskoy породы dlya sovershenstvovaniya molochnogo skota. Ж. «Молоchnoye i myasnoye skotovodstvo».- 1990. №1. с. 33-35.

51. Toshpo'latov B. Turli zotdorlikdagi buqachalarning go'sht mahsuldorligini shakllanishiga ayrim fenotipik omillarning ta'siri. Avtoref. Diss. Kand.nauk. 2010. 21 b.

52. To'raqulov Z.T., Kaxarov A.K. Yosh qoramollarni go'sht mahsuldorligini oshirishga doir. Sam QXI. Ilmiy to'plami. Samarqand-1999. 191-198 b.

53. Xidirov I. Научные и практические основы увеличения производства говядины и улучшения яек качества в условиях промышленной технологии: Автореф. дис. ... докт. с.-х. наук.- Новосибирск, 1982. 59 с.

54. Xushvaqtoy A.A. Har xil genotipli qora-ola zotli buqachalarning go'sht mahsuldorligi va biologik xususiyatlari. Q.-x. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. ... Avtoreferati. Toshkent. 2007. 21 b.

55. Cherekayev A.V., Strekozov N.I. Perspektivnoye razvitiye skotovodstva Rossii. J. «Zootexniya», 2001.-№3. s. 3-5.

56. Ийеглов Ye.V. Seleksionnaya rabota v molochnom skotovodstve J. «Jivotnovodstvo». 1987.- №7. s. 11-26.

57. Ernst. L.K. Jivotnovodstvo Rossii. 2001-2010. J «Zootexniya» 2001, №10. s.2-12.

Internet saytlari

58.www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.

59.www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

60. www.ZiyoNet.uz – Oliy ta'limda informasion resurslar kutubxonasi sayti.

61. www.MF.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti.

62. www.stat.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar markazi rasmiy sayti

63. www.livestock.uz – O'zbekiston chorvachiligi ilmiy tadqiqotlari sayti

64. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti

ILOVALAR

УДК: 636.22/28.082

К ВОПРОСУ О ГОЛШТИНИЗАЦИИ
ЧЕРНО-ПЕСТРОГО СКОТА В ОРЛОВСКОЙ ОБЛАСТИ

Р.Н. Ляшук, к.с.-х.н., ФГОУ ВПО ОрелГАУ
А.И. Шендаков, к.с.-х.н., ФГОУ ВПО ОрелГАУ
М.В. Востров, ФГОУ ВПО ОрелГАУ
В.В. Сорокин, ФГОУ ВПО ОрелГАУ

В структуре поголовья крупного рогатого скота Орловской области чёрно-пёстрая порода занимает около 60% от общего поголовья и обладает рядом характерных особенностей: высокими акклиматизационными способностями, хорошими воспроизводительными качествами, выраженным молочным типом. Вместе с тем, во многих хозяйствах этот скот отличается низкой жирностью молока (3,20-3,30%) и недостаточной живой массой (500-530 кг).

Для повышения молочной продуктивности чёрно-пёстрых коров в ряде племенных заводов и ферм области в 1970-80 годах предприняли попытку использования голштинской породы. Одним из таких предприятий является опытно-производственное хозяйство «Стрелецкое» ВНИИ зернобобовых культур. Общая площадь сельскохозяйственных угодий ОПХ составляет 3779 га, из которых 3140 га занимает пашня.

Первоначально в хозяйстве использовали скрещивание маточного поголовья с быками-производителями джерсейской породы, что привело к увеличению жирности молока у отдельных коров до 4,50-4,75%. С целью предотвращения возможности уменьшения живой массы, полученных полукровных животных осеменяли спермой чёрно-пёстрых голштинских производителей, что впоследствии улучшило экстерьерно-конституциональные показатели дойного стада.

В последние годы селекционная работа была ориентирована на одновременное получение нового молочного типа скота с кровностью не более 87,5% по голштинской породе и возвратное скрещивание (см. рисунок 1).

С 2002 года началась работа по разведению «в себе» коров с кровностью 50, 75 и 87,5% по улучшающей породе. В настоящее время в стаде ОПХ «Стрелецкое» насчитывается 900 коров, средний удой которых в последние годы составил 4000-4100 кг молока при жирности 3,80-3,95%.




Рисунок 1 - Схема одновременного выведения новых типов молочного скота с кровностью 12,5 и 87,5% по голштинской породе в ОПХ «Стрелецкое» Орловской области.

Материал и методика исследований

С целью решения проблемы дальнейшего повышения молочной продуктивности коров и определения оптимальных генотипов для производства молока нами были проведены исследования по принципу селекционно-генетических пар-аналогов: чёрно-пёстрая порода —

контроль, I, II, III, IV, V, VI и VII группы — с кровностью 12,5, 25, 37,5, 50, 62,5, 75 и 87,5% по голштинской породе соответственно (см. таблицу 1). Также была дана оценка быков по продуктивности дочерей, изучены селекционно-технологические качества и популяционные показатели, проведён корреляционно-регрессионный анализ и ряд других исследований. Итогом работы стала разработка плана дальнейшего совершенствования чёрно-пёстрого скота хозяйства на 2005-2010 год.

Результаты и их обсуждение

Результаты оценки молочной продуктивности и живой массы подопытных животных представлены в таблице 1.

Таблица 1 - Молочная продуктивность и живая масса коров в ОПХ «Стрелецкое»

Кровность (группа)	Лактация	Голов	Удой за 305 дней, кг	Жир, %	Живая масса, кг
Ч/П (контроль)	1	39	3512	3,97	553
	2	37	4192	4,11	593
	3	35	4402	3,95	595
7/8Ч/П-1/8Г I	1	21	4057	3,91	558
	2	16	4300	4,06	603
	3	13	4425	3,99	616
3/4Ч/П-1/4Г II	1	110	3514	3,94	559
	2	96	4209	4,08	591
	3	58	4226	4,02	609
5/8Ч/П-3/8Г III	1	47	3620	4,01	560
	2	36	4218	4,12	598
	3	31	4368	3,96	608
1/2Ч/П-1/2Г IV	1	147	3520	3,92	548
	2	86	4328	4,04	587
	3	67	4819	4,09	600
3/8Ч/П-5/8Г V	1	79	3791	3,96	555
	2	60	4391	4,04	596
	3	38	4469	3,99	607
1/4Ч/П-3/4Г VI	1	129	3599	3,83	549
	2	79	4445	4,03	593
	3	45	4782	4,02	605
1/8Ч/П-7/8Г VII	1	47	3585	3,98	558
	2	20	4117	4,11	588
	3	9	4611	3,98	594

Примечание: Ч/П — чёрно-пёстрая, Г — голштинская порода

Установлено, что самый высокий удой за 305 дней 1 лактации был характерен для коров с кровностью 12,5% по голштинской породе — 4057 кг (при количестве молочного жира 158,6 кг). Судя по коэффициенту молочности, можно сказать, что эти животные проявляют тенденцию к формированию молочного типа — 7,271. Наибольшей жирностью молока в стаде по 1 лактации обладали коровы с кровностью 37,5% по голштинской породе — 4,01%.

Высокая молочная продуктивность была характерна для животных с кровностью 5/8 по голштинцам: удой за 305 дней — 3791 кг, жирность молока — 3,96% (при количестве молочного жира 150,1 кг). Для них был характерен большой коэффициент молочности в отличие от других помесей — 6,831.

Самой высокой живой массой обладают коровы с кровностью 3/8 по голштинской породе — 560 кг, что превышает чёрно-пёстрых животных на 7 кг. Меньшая живая масса характерна для коров с кровностью 50 и 75% по голштинской породе — соответственно 548 и 549 кг. Вместе с тем, достоверных различий между группами получено не было.

По 2 лактации за 305 дней лидерами по удою являлись коровы с кровностью 75% по голштинской породе — 4445 кг молока жирностью 4,03%. Для них также было характерно самое высокое количество молочного

Немецкая голштинская (чёрно-пёстрая)

Наилучшая порода для всех молочных специалистов!

Преимущества немецкого голштина:

- молочная порода наилучшей производительности, генетического потенциала к производству более 10000 кг молока за лактацию
- высокие удои у первотелек, стабильное производство молока на протяжении многих лактаций
- скороспелость: ранее осеменение и первый отел
- коровы обладают большим, длинным и глубоким туловищем для высокой вместительности потребленных кормов
- крепкое здоровье и регулярная плодовитость, правильный и крепкий фундамент
- превосходное строение вымени и молокоотдача
- немецкие голштины наиболее соответствуют потребностям современных и больших молочных ферм
- самая экспортируемая порода из Европы, проверенно доказанная по миру во всех климатических условиях

Факты и данные:

2011

общая популяция:	~ 5.200.000
зарегистрированных коров:	1.586.051
Ø производство молока (кг/лак):	9.008
Ø содержание жира (%):	4,02
Ø содержание белка (%):	3,35
Ø производство в первой лактации:	8.187
период между отелами (дней):	414
первый отел (месяцев):	27,5
Ø возраст при отбраковке (лет):	>5,4

59% из всего поголовья КРС введенного в книги регистрации

С 1.586.051 черно-пестрых коров, заведенных в племенную книгу, голштины являются важнейшей породой КРС в Германии. Благодаря такой численности, в Германии обитает самая большая популяция голштинов в мире!

Голштины распространены по всей Германии, хотя на юге (Бавария и Баден-Вюртемберг) содержится лишь маленькая часть популяции. Организованное разведение с учреждением первых животноводческих обществ началось уже более 130-ти лет назад. На сегодняшний день около 25000 племенных ферм каждодневно занимается дальнейшим развитием этой успешной молочной породы.

INTERBOVES приобретает племенных голштинов из исходного центрального региона разведения между горной цепью Гарц и побережьем Северной Германии. Вместе с племенными советниками мы предлагаем и показываем наших племенных нетелей прямо на фермах, разводящих племенной и молочный скот.

Выращивание племенных нетелей немецкого голштина следует после интенсивного кормления в юном возрасте, преимущественно на щедрых и сочных пастбищах, в периоде

с апреля по октябрь. Такой здоровый способ выращивания является основой будущего высокого производства молока в сочетании с наилучшим здоровьем и плодовитостью. На основании быстророслости и скороспелости породы немецкий голштин, но в зависимости от интенсивности выращивания молодняка, нетелей можно первый раз осеменить уже в возрасте 14 месяцев. К первому отелу высокостельные голштинки достигают вес от 550 до 650 кг.

Длинное, большое туловище и длинные ребра являются характерными для немецкого голштина - они способствуют большой вместительности потребленного основного корма и обеспечивают устойчивое здоровье животного, даже при высоком производстве более 40 килограмм молока в день. Высокопроизводительных коров в средних и больших хозяйствах кормят в основном либо с помощью кормосмесителей-раздатчиков чистой полнорационной кормосмесью, либо концентратом из станций кормления.

Решающим для экономического успеха животноводства является качество поголовья скота и его постоянное улучшение. Поддержку немецкому животноводству оказывают организации занимающиеся осеменением и племенной работой, предоставляя производственные данные и расчеты племенной ценности для его поголовья.

Целенаправленное спаривание производится самыми лучшими немецкими и интернациональными быками, а также 1000 проверяемыми быками в год, происходящими от 0,1% наилучших племенных коров.

Предпосылкой для такой целенаправленной племенной работы является независимый контроль производства молока, а также применение искусственного осеменения. С долей проведения контроля молочной продуктивности составляющей 83% и долей применения искусственного осеменения составляющей 81% всех хозяйств содержащих немецких голштинов, Германия является мировым лидером!

В дополнение к этому, у наилучших маточных семейств племенных коров по всему государству употребляются биотехнологии пункции фолликулов и забора яйцеклеток в соединении с оплодотворением в лабораторных условиях (Ovum pick-up и In-Vitro Produktion), а также пересадка эмбрионов (ET).

В немецком разведении голштинов, наряду с производством молока, жира и белка, так называемым второстепенным признакам уже рано придавалось большое значение. Благодаря этому, Вы получите животных с наилучшим предрасположением к плодовитости, здоровью вымени и здоровому функциональному фундаменту!

Немецких голштинов экспортируют уже десятилетиями по всему миру, где они себя оправдали при самых различных климатических условиях. Совсем безразлично, управляете ли семейным или большим хозяйством – немецкие голштинки справятся со всеми формами содержания. Извлеките и Вы выгоду из доказанного качества голштинов из Германии - европейского экспортного чемпиона!